

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX-FALSAFA FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

SOTSILOGIYA VA IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**OILANING GLOBAL INQIROZI VA UNI BARTARAF ETISHDA
IJTIMOIIY ISHNING O'RNI.**

MALAKAVIIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Mustafoulova A.

Ilmiy rahbar: prof. Nabiyeu F.X.

**Malakaviiy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2011 yil ____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonna№ ____).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviiy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil ____dagi majlisida
himoya qilindi va __ foizga baholandi (bayyonna № ____).**

Samarqand – 2011.

Mavzu: OILANING GLOBAL INQIROZI VA UNI BARTARAF ETISHDA IJTIMOIY ISHNING O'RNI.

Kirish

I Bob. Fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonida oila bilan bo'lgan o'zgarishlar.

1. Fuqarolik jamiyatda ma'naviyatga ehtiyojni ortib borishi.
2. Ma'naviyatga e'tibor qilmaslik oqibatida oila inqirozini kelib chiqishi.

II Bob. Ijtimoiy ish tizimini shakllanishini oilani muts' hkamlashdagi ahamiyati.

1. O'zbekistonda ijtimoiy ish tizimini shakllanishi.
2. Ijtimoiy ishning oilaga yo'naltirilganligi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Mundarija

Kirish.....	3-5
I Bob. Fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonida oila bilan bo'lgan o'zgarishlar	
1. Fuqarolik jamiyatda ma'naviyatga ehtiyojni ortib borishi.....	6-22
2. Ma'naviyatga e'tibor qilmaslik oqibatida oila inqirozini kelib chiqishi.....	23-39
II Bob. Ijtimoiy ish tizimini shakllanishi oilani muts' hkamlashdagi ahamiyati.	
3. O'zbekistonda ijtimoiy ish tizimini shakllanishi.....	40-52
4. Ijtimoiy ishning oilaga yo'naltirilganligi.....	53-64
Xulosa.....	65-68
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69-70

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekistonda shakllanib va rivojlanib borayotgan ijtimoiy ish xodimlarini professional darajada tayyorlash tizimini taqdiri va kelajagi ko'p hollarda davlatga va fukarolik jamiyatini kuchlilik darajasiga bog'liqdir. Fukarolik jamiyatini yanada samarali qilish esa uni tarixiga nazar solib boy tarixiy tajribalarni umumlashtirib ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun ilmiy shart-sharoit yaratishga bog'liq. Shuning uchun o'z diplom ishimizda mamlakatimiz hududida fukarolik jamiyatini shakllanish jarayonini, turli davrlardagi holatini va oilaga ta'sirini o'rganishni maqsad qilib quydik.

O'zbekistonda islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan odil, demokratik jamiyat tuzish uchun ishlab chiqilgan besh tamoyildan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligi va Prezidentimiz tomonidan 2007 yil «Ijtimoiy himoya yili», 2008 yil «Yoshlar yili», 2009 yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», 2010 yil «Barkamol avlo yili», 2011 yil «Kichik biznes va tadbirkorlar yili» deb e'lon qilinishi hozirgi kunimizning eng dolzarb masalasi ekanligini ko'rsatib turibdi¹.

Bozor munosobatlari yo'lini tanlagan O'zbekiston Respublikasida oilani sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya masalasi ustivor yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Buni taraqqiyotning o'zbek modelining besh tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat ekanligidan ham ko'rish mumkin. Aholini ijtimoiy himoyasi, oilani sog'lomlashtirish va har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash ustivor vazifa ekanligini ta'kidlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Konstitusiyaning 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda 2010 yilni «Barkamol avlod yili»² deb e'lon qildi. Barkamol avlodni eng avvalo sog'lom oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida jismonan sog'lom, aqlan yetuk va manan yuksak qilib tarbiyalab shakllantirish mumkin.

¹ Каримов И.А., Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18 йиллигига бағишланган анжумандаги маърузаси. Халқ сўзи, 2010 йил, 8-декабр.

² Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 17 йиллигига бағишланган анжумандаги маърузаси. Халқ сўзи 2009йил, 8 декабр.

Insoniyat jamiyati yaratilibdiki insonda va oilada ijtimoiy himoyaga ehtiyoj paydo bo'lgan. Ijtimoiy himoya tizimi uzoq evolyusion jarayonda rivojlanib takomillashib bordi. Har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy muammolari bo'lgani kabi ijtimoiy himoya tizimi ham unga munosib bo'lib kelgan. Hozirgi kunda ijtimoiy himoya masalalari boshqa ko'plab muammolar singari global xarakterga ega bo'lib bormokda. Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirib uni samaradorligini oshirish aholini zaif qismini himoyasini sog'lom oila atrofida integrasiyasini talab etmoqda. Ijtimoiy integrasiya esa o'z navbatida oila ijtimoiy himoyasini hamkorlikdagi strategiyani ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ijtimoiy hayotning ayrim sohalarini va eng avvalo, iqtisodiy sohani globallasuvi, madaniy globallasuv va hatto siyosiy globallasuv ijtimoiy himoya tizimida ham integrasiya jarayonini boshlab globallasib bormoqda. Buni oxirgi yillarda respublikamizda o'tkazilayotgan ijtimoiy himoyaga bag'ishlangan xalqaro forum va konferensiyalar natijalariga ko'ra amalga oshirilayotgan chora – tadbirlardan ham ko'rish mumkin. Lekin integrasiya va globallasuv jarayonida biz G'arb va Sharqning o'ziga xosligini unutmasligimiz lozim. Bu to'g'risida Nobel mukofotining lauriyati, ingliz yozuvchisi J.R.Kiplingning «G'arb bu G'arb, Sharq bu Sharq, va to oxiratgacha ular qo'shilisha olmaydi»³ deb aytgan gaplarini unutmasligimiz lozim. Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zlarining chiqishlaridan birida hozirgi kunda Kiplingni so'zlari eskirib qoldi, Sharq va G'arb xalqlari birgalikda yashashlari va hamkorlik qilishlari mumkin deb ta'kidladilar.

O'zbekistonda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat samaradorligini yanada oshirish uchun ijtimoiy siyosat tarixiga nazar solib, uning vujudga kelishini, rivojlanish tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, fan va madaniyat gullab-yashnagan va markazlashgan davlat tuzilgan davrdagi, masalan, Somoniylar yoki Amir Temur davridagi ijtimoiy siyosat tarixini, umuman, ijtimoiy siyosat evolyusiyasini o'rganish, hozirgi kundagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

³ Гафуров Б.Г. Таджики. Душанбе.1989 г. 225 бет.

Jamiyatda mavjud bo'lgan sosial muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun ijtimoiy siyosatga tarixiy nuqtai nazardan yondashib ilmiy sharoit yaratish lozim. Buning uchun turli xil sosial muammolarni anglab, ularning ma'nosini iloji boricha chuqurroq, kengroq tushunib olish kerak.

Bunday amaliy hissa qo'shish uchun tarixchilar sharoitni atroflicha o'ylab ko'rib, strategik vazifalarni belgilab va ularni hal qilish yo'llarini izlashni tashkil qilishlari kerak. Agar tarixchilar turli xil sosial muammolarni aniqlab, ularni iloji boricha chuqurroq muhokama qilsalar, bu muammolarga tarixiy nuqtai nazardan yondashsalar ijtimoiy siyosatni kuchaytirishda ilmiy shart-sharoit yaratgan bo'ladilar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni yanada samarador qilish uchun insoniyat jamiyatining hamma bosqichlaridagi, ayniqsa, jamiyat gullab-yashnagan davrlardagi ijtimoiy siyosat tarixini chuqur ilmiy tadqiq qilish va oliy o'kuv yurtlarida ijtimoiy siyosat tarixiga doir maxsus kurslar joriy qilinishi muhim ahamiyatga egadir.

I Bob. FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANISH JARAYONIDA OILA BILAN BO'LGAN O'ZGARISHLAR.

1. Fuqarolik jamiyatda ma'naviyatga ehtiyojni ortib borishi.

Ishning maqsadi. Inson harakati ostida yaxshi yashashga intilish yetganligi. Odamlar hayotini farovon qilish oilaga bog'liqligi. Inson hayotining qiziqishlariga yaqin bo'lgan fuqarolik jamiyatini shakllanishi. Fuqarolik jamiyatimni ma'naviy hayotga ta'siri. Har bir davrning o'ziga xos sosial muammolari. Oilani mustahkam qilish omillari. Faqat sosial samara olishga qaratilgan siyosat oqibatlari. Fuqarolik jamiyati tamoyillari. Insonparvarlik tamoyili. Demokratik davlat xalq hayotini farovonligini ta'minlash omili.

Albatta dunyoning rivojlangan mamlakatlarining boy tajribasini qadrlashimiz va o'z taraqqiyotimizda ijodiy qo'llashimiz lozim. Faqat biz ularni tajribasini o'ziga xosligimiz, mentalitetimizdan kelib chiqib ijodiy qo'llashimiz lozim. G'arb mamlakatlarining tarixiy tajribasini, aytaylik, G'arb demokratiyasini tarixiy tajribasini shundaygina olib Sharq mamlakatlariga joriy qilish oqilona yo'l emas. Chunki G'arbdagi individualizm va Sharqdagi jamoaviylik qadriyatlari demokratiyaga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Buni tushunish uchun G'arb va Sharq oilalarining o'ziga xosligidan kelib chiqib mulohaza yuritish lozim. G'arb mamlakatlarida oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat tenglik tamoyiliga asoslangan. Sharq mamlakatlarida esa oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatda ota-onalarning mavqeyining ustivorligiga asoslangan. Sharqda farzand o'z ota-onasini ko'ziga xatto tik qarashi odobsizlik bo'lib hisoblangan. G'arbdan esa farzand o'z ota-onasi bilan san-sanlashib gapirish va tortishish normal holat bo'lib hisoblanadi. Oiladagi demokratik jarayonlarning o'ziga xosligi jamiyatda o'zini izini qoldiradi va o'z o'rniga ega bo'ladi. Mashhur fransuz faylasufi Fredrik Le Ple «jamiyatni tushunmoq uchun oilani tushunmoq zarur» deb bejizga yozib qoldirmagan⁴.

⁴ Антонов А.И., Медков В.М. Социология семьи. Москва. 1996г., стр.48.

Xozirgi mintaqaviy integrasiyalashuv va globallashtirish sharoitida milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unligini ta'minlagan holda oilani sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya tizimini integrasiyalashni hamkorlikdagi strategiyasini ishlab chiqish zamon talabi bo'lib hisoblanadi. Albatta ijtimoiy himoya masalalari millati, dini, irqi va geografik joylashuvidan qat'iy nazar barcha uchun mohiyatan bir xil bo'lib hisoblanadi. Barcha odamlarning asosiy ehtiyojlari ya'ni oziq-ovqat, kiyim-kechak va bosh-panaga bo'lgan ehtiyojlari bir xil bo'lib hisoblanadi. Lekin ijtimoiy himoyani amalga oshirish yo'llari va usullari o'sha mamlakatdagi real sharoitdan va mentalitetdan kelib chiqib bir – biridan farq qilishi mumkin. Oilani sog'lomlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy himoyani xarakteri ijtimoiy muammoning murakkabligi darajasi bilan belgilanadi.

Hozirgi kundagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining zaif qismini aksariyati ijtimoiy nosog'lomlik va oilaning global inqirozining natijasida yuzaga kelmoqda. Oilaning global inqirozi nikohsiz oilalarda, ajralishlarda, yolg'iz oilalarda, gey va lesbiyankalarning bir jinsli nikoxlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu inqiroz mutaxassislar tomonidan yadro qirg'in quroli xavfiga, terrorizmga va ekologik muammoga tenglashtirilmoqda. Mavjud bo'lgan global muammolarning hammasi birgalikda va har biri alohida insoniyat uchun xalokatli ekanligi ta'kidlanmoqda. Chunki oilaning inqirozi oila uz funksiyalarini bajarmasligini anglatadi. Oilaning funksiyalari hayot mazmuni bo'lgan hayotni davomiyligini ta'minlaydigan reproduktiv, ekzistensial va ijtimoiylashuv funksiyalaridan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda oila bolani dunyoga keltirib, boqib-parvarishlab va hayotga tayyorlab beradi. Oila ming yillar davomida o'z funksiyalarini bajarib insoniyatning keyingi mavjud bo'lishini ta'minlab kelmokda. Hozirgi kunga kelib esa bu muammo bo'lib qolmoqda.

Oilaning global inqirozi G'arb va Sharq mamlakatlarida bir xil darajada namoyon bo'layotgani yo'q. Inqiroz asosan G'arb mamlakatlarida kuchli namoyon bo'lmoqda, Sharq mamlakatlarida esa endigina boshlanib nisbatan yumshoqroq namoyon bo'lmoqda. Buning sabablaridan biri fuqarolik jamiyatini shakllanish jarayonida ma'naviyatning yuksalish darajasini xilma-xilligidadir. G'arb

mamlakatlarida fuqarolik jamiyatini shakllanishi ancha oldin boshlangan. Ushbu jarayonda fuqarolarning xuquqlari ortib ular o'z harakatlarida o'zlarini erkinroq his qilib to'g'ri yo'ldan og'ish xolatlari kelib chiqa boshlagan. Chunki huquq ortgandan keyin odam o'zini erkinroq his qilib to'g'ri yo'ldan og'ib ketganligini sezmay qoladi. Bu jarayon uzoq yillar davomida asta-sekinlik bilan evolyusion tarzda yuz berib boradi. Shuning uchun G'arb mamlakatlarida ijtimoiy nosog'lomlik va oilaning global inqirozi yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo'lmoqda.

Inson to'g'ri yo'ldan yurishi va jamiyatda tartib bo'lishi uchun insoniyat ikkita ijtimoiy regulyatorni ya'ni xuquq va axloqni o'ylab chiqqan. Fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitida huquqiy ta'sir etish imkoniyati nisbatan pasayadi, ana shunda ikkinchi ijtimoiy regulyator bo'lgan axloq kuchayib uni o'rnini to'ldirib borishi lozim bo'ladi. G'arb mamlakatlarida buni oldindan ko'ra bilishmadi va fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ijtimoiy axloqni himoya qilib, axloqiy tarbiyani kuchaytirib ma'naviyatni yuksaltirishga yetarli e'tibor qaratilmadi. Bundan tashqari individualizmga asoslangan G'arb mamlakatlarida ma'naviyatga ehtiyoj yuqori emas edi. Ma'naviyatga yetarli e'tibor qilmaslik oqibatida yuzaga kelgan nosog'lom muhit ya'ni ijtimoiy nosog'lomlik insoniyatni halokat yoqasiga olib kelib qo'ygan oilaning global inqirozni keltirib chiqardi.

Oilaning global inqirozi G'arb va Sharqda turli darajada namoyon bo'lishi uni oqibatlarini ham turli darajada bo'layotganligini keltirib chiqarmoqda. G'arb mamlakatlarida oilaning global inqirozi shu darajada kuchayib ketganki ular ayrim hollarda buni inqiroz emas, balki zamonaviy oila deb tushunishmoqda. Shuning uchun ular asosiy e'tiborni oilani mustahkamlashga emas balki bolalarni, yoshlarni va qariyalarni oiladan ajralgan holda himoya qilishga harakat qilishmoqda. Boshqacha qilib aytganda ular sababni bartaraf qilmasdan oqibatni hal qilishga urinishmoqda. Lekin bunday yo'l bilan muammoning yechimini topib bo'lmaydi. Chunki insoniyat jamiyatidagi u yoki bu muammo mavjud bo'ladi toki uni keltirib chiqargan sabab mavjud ekan. Shuning uchun bizlar ulardan farq qilib bolalarni, yoshlarni va qariyalarni himoya qilishda oilani sog'lomlashtirish va mustahkamlash orqali amalga oshirishga harakat qilishimiz lozim. Chunki biz fuqarolik jamiyati

endigina shakllanish jarayonida turibmiz va oilaning global inqirozi ham endigina namoyon bo'lmoqda.

Boshqacha qilib aytganda kasallikni davolash usullari kasallikni og'irlik darajasi bilan belgilanganligi kabi oilaning global inqirozining darajasiga qarab chora-tadbirlar belgilanishi lozim. Aslida G'arb mamlakatlari ham asosiy e'tiborni oilani sog'lomlashtirish va mustahkamlashga qaratishlari lozim. Chunki oilani mustahkamlamay bolalarni, yoshlarni va qariyalarni ijtimoiy himoyasini samarali qilib bo'lmaydi. Mashhur Ibn Sino «kasallikni emas sababini davolash kerak»⁵ deb bejizga aytmagan. Sabab ayni holda ijtimoiy nosog'lomlik natijasida kelib chiqqan oilaning global inqirozi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun G'arb va Sharq mamlakatlari o'rtasidagi ijtimoiy himoya sohasidagi hamkorlik strategiyasi aholini zaif qismini oila doirasida integratsiyalashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Inson dunyoga kelibdi va to dunyoni tark etgunga qadar oila himoyasi doirasi bilan qamrab olingan bo'lishi va buning uchun esa eng avvalo oila sog'lom va kuchli bo'lishi lozim.

Ijtimoiy himoya masalalarini sabab va oqibat nuqtai nazaridan tahlil qilish aholini yordamga muhtoj zaif qismini ko'payishi oilaning global inqirozining oqibati ekanligini ko'rsatib beradi. Oila global inqirozi esa fukarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ijtimoiy axloq himoyalanimay ma'naviyat qashshoqlashuvining natijasida kelib chiqqan ijtimoiy nosog'lomlikni oqibatidir. Sharqda, xususan, sobiq sovetlar makonidagi mamlakatlarda ijtimoiy nosog'lomlikni keltirib chiqqan ma'naviyatning pasayishiga kommunistik mafkura va ateistik tarbiya ham sabab bo'ldi. Chunki sobiq sovetlar zamonida milliy respublikalarda odamlar milliy va diniy kadriyatlarni unutib ma'naviy qashshoqlikka duchor bo'la boshladilar. Faqat mustaqillik sharofati bilan milliy va diniy qadriyatlarni tiklab ular negizida ma'naviyatni yuksaltirish orqali ijtimoiy sog'lomlikni ta'minlash imkoni paydo bo'ldi. Jamiyatni sog'lomlashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan yaratilgan «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

⁵ Альперович В. Социальная геронтология. Ростов-на-Дону. 1997 г. с.59.

G'arb va Sharqning o'ziga xosligi ya'ni G'arbda individualizm, Sharqda esa jamoaviylikni ustunlik qilishi ma'naviyatga turlicha ehtiyojni keltirib chiqargan. Sharq mamlakatlarida jamoaviylik tuyg'usini ustunlik qilishi ma'naviyatga ehtiyojni oshishini keltirib chiqardi. Chunki jamoaviylik o'zgalar manfaatini o'ylash negizida shakllanadi. Individualizm esa individ manfaatini ustivorligiga asoslangan bo'lib ma'naviyatga ehtiyojni o'sishini keltirib chiqarmaydi. O'zgalar manfaatini o'ylash uchun insonda ma'naviyat yuksak bo'lishi lozim. Ma'naviyat inson qalbida ma'lum bir axloqiy tamoyillarni shakllantirib o'zgalar manfaatini o'ylash va himoya qilishni ta'minlaydi. Ma'naviyati yuksak odamda o'zgalar manfaati mening manfaatimdan muhimroqdir degan axloqiy tamoyil shakllangan bo'ladi. Oila global inqirozining G'arb va Sharqda turli darajada namoyon bo'lishining asosiy sababi ma'naviyatning yuksaklik darajasining pastu-balandligidadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oilaning global inqirozini tahlil qilish inqiroz sababi ma'naviy qashshoqlik ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Oilaning global inqirozining namoyon bo'lish darajasi bir xil bo'lmaganligi sababli uni bartaraf qilish chora-tadbirlari ham inqirozning darajasiga munosib bo'lishi kerak. G'arb mamlakatlarida oila global inqirozi keskin namoyon bo'lishi va uni oila modernizatsiyasi deb qabul qilinishi bolalarni, qariyalarni oila doirasidan tashqarida himoya qilishga intilishni keltirib chiqarmoqda. Bizda esa oila inqirozi nisbatan yumshoqroq namoyon bo'layotganligi uchun bolalarni va qariyalarni oila doirasida ya'ni, oilani sog'lomlashtirish orqali himoya qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Oilaning global inqirozi ma'naviy qashshoqlikning sababi ekanligini inobatga olib global miqyosda ma'naviyatni yuksaltirishga harakat qilish kerak. Muxtaram Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviyat masalasi bir millatga emas, balki butun insoniyatga daxldor bo'lgan global muammo ekanligi quyidagicha ifodalangan: «bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi – jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida

o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir». ⁶ Ushbu kitobdagi ezgu g'oyalarni global miqyosda odamlar qalbi va ongiga singdirish Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Zamonamiz mohiyati bo'lgan fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu maqsadga erishish odamlarning ongu tafakkuriga demokratik va liberal qadriyatlarning singdirilishi, eng avvalo xalqimizning ma'naviy yuksalishiga bog'liqdir. Ammo shu bilan birga fuqarolik jamiyatining shakllanish sharoitida ma'naviyatning sayozlashuvi okibatida insoniyatning keyingi mavjud bulishini gumon kilib kuygan global muammolar yuzaga kelmokda. Ularga yadro kirgin kuroli xavfi, terrorizm, ekologik muammo va oilaning global inkirozi singari muammolr kiradi. Ularni barchasiga fukarolik jamiyati shakllanishi jarayonida axlokiy tarbiyaga yetarli darajada e'tibor kilmaslik okibatida ma'naviyatning kashshoklashuvi sabab bulmokda.

Insoniylik jamiyatida ma'naviyat va ijtimoiy axloqning o'rni tug'risida gapirib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: **«Hozirgi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muxim ekanini anglab olmoqda»**⁷

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu so'zlari bizni fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida ijtimoiy axloqni himoya qilish va ma'naviyatni yuksaltirish muammolarini tahlil qilishga undaydi.

Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab, u o'zining xilma-xil ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan farovon jamiyatni orzu qilib kelmoqda. Hozirgi kunda ham ozod va obod farovon jamiyatni orzu qilib kelyapmiz va bunday

⁶ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Тошкент. 2008й., 13 бет.

⁷ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. Тошкент «Маънавият» 2008, 117-бет

jamiyatni qurish «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish» konsepsiyasi bilan amalga oshirilmoqda.

Ammo fuqarolik jamiyatining shakllanishi jarayonida huquq va erkinliklarning oshishi oqibatida insoniylik jamiyatida to'g'ri yo'ldan ayrim og'ish holatlari kelib chiqmoqda. Buni biz, fuqarolik jamiyati rivojlangan AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yaqqol namoyon bo'layotgan oilaning global inqirozida ko'rishimiz mumkin. Ularning axloqi nikoxsiz turmushni, oiladagi ajralishlarni, otionalarning biridan iborat oilalarni, «gey» va «lesbiyanka»larning bir jinsli nikohini normal holat deb qabul qilmoqda. G'arb mamlakatlarida yaqqol namoyon bo'layotgan oila global inqirozining bizning mamlakatimizga kirib kelish tahdidi mavjud va buni o'z vaqtida anglab olish o'ta muxim. Shu o'rinda yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini eslash lozim: **«Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu kadar tezkorki, endi ilgariyidek, ha bu voqyea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga alokasi yuk, deb beparvo qarab bulmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillab orqaga kolib ketishi hyech gap emas»⁸**. Hayot mazmuniga zid bo'lgan bunday holatga e'tibor qilmaslik ertami-kechmi insoniyatni halokat yoqasiga olib keladi. Buning oldini olish esa fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishni talab etadi.

Fuqarolik jamiyati to'g'risida gapirishdan oldin uning aniq bir ilmiy ta'rifini berish zarur. Aks holda fikrlar tarqoqligi va ayrim tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Fuqarolik jamiyati – insonning hayot faoliyati sharoitini ta'minlaydigan, shaxs va ijtimoiy guruhlarning xilma-xil ehtiyoj hamda manfaatlarini qondiradigan, amalga oshiradigan ijtimoiy munosabatlar, rasmiy va norasmiy strukturalar majmuasidir. Fuqarolik jamiyatining mohiyatini anglab olish uchun uni sosiologik asoslarini bilish lozim. Buning uchun insonning harakati ostida nima yotganligi, inson nima uchun ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishining sababini aniqlab olish kerak. Odamlar faoliyati asosan umumahamiyatli ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq va aynan shuning uchun ular ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etadilar deb aytish

⁸ Ўша ерда. 112-бет

xato bo'lar edi. Chunki odamlarning aksariyati xilma-xil manfaat va ehtiyojlarni, jumladan, individual manfaatlarni qondirish bilan band bo'lishadi. Ular bu ehtiyojlarni kundalik hayot sohasida qondirishga harakat qilishadi. Kundalik hayotda individlarning harakati ularning avtonomlikka intilishini va jamiyat hayotidan mustaqil bo'lishga urinishini aks ettiradi.

Individlarning kundalik hayoti, uning birlamchi shakllari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ammo kundalik ehtiyojlar va ularni qondirishning birlamchi shakllarining xilma-xilligi individ va ijtimoiy guruhlar intilishlarining muvofiqligi hamda integrasiyasini talab qiladi. Chunki muvofiqlik va integrasiya bo'lgan taqdirdagina jamiyatning yaxlitligi va taraqqiyotini ta'minlash mumkin. Ijtimoiy, guruhiy va individual manfaatlarning muvozanatini, o'zaro aloqasini davlat o'zining boshqaruvchilik funksiyasi orqali amalga oshiradi. Demak, global jamiyat, ya'ni keng qamrovli insoniylik jamiyati fuqarolik jamiyati va davlatdan iborat buladi.

Fuqarolik jamiyati va davlat, jamiyat hayotining turli tomonlari va holatlarini aks ettiradigan ijtimoiy universallik hisoblanadi. Davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro munosabatini tushuntirish uchun ularning mazmunini, faoliyatini amalga oshirishning vositalari va asoslarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Davlatning mazmuni ijtimoiy guruh, sinf, xalqlarning umumahamiyatli ehtiyojlarini qondirish sohasi bo'lsa, fuqarolik jamiyati individning kundalik ehtiyojlarini qondirish sohasidir.

Davlat faoliyatini amalga oshirishning vositalari konstitutsiya, hokimiyat, huquqiy majburlov bulsa, fuqarolik jamiyati vositalarini ishonch, e'tiqod, imon, axloqiy normalar, an'ana va urf-odatlar tashkil qiladi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ijtimoiy axloqning mavqeyi ortib borishi lozim¹.

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiy insoniy jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan tushunchalar, ya'ni huquq va axloq to'g'risida gapirib, jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlashda axloqning roli yuqori ekanligini quyidagicha ko'rsatgan edi: «**Agar jamiyat qonunlar yordamida boshqarilsa va**

¹ .Набиев Ф. Х.. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й.

tartibot jazolashlar vositasida amalga oshirilsa, odamlar jazolashlardan o'zlarini olib qochishga intiladi, lekin ular o'zlarida or-nomusni his qilmay qo'yadilar; agar jamiyat axloq vositasida boshqarilsa, tartibot axloqiy qadriyatlar bilan ta'minlansa, odamlar or-nomusni his qiladilar, halol va sofdil bo'ladilar»⁹. Konfusiyning maqsadi odamlar uchun ideal farovon jamiyat yaratish bo'lganligini hisobga olsak va shunday jamiyatni biz fuqarolik jamiyati deb bilsak, demak, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida ijtimoiy axloqning ahamiyati ortib, ma'naviyat yuksalib borishi kerakligini tushunish mumkin.

Davlat asosini siyosiy institutlar, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, yo'lboshchilar, elita tashkil qilsa, fuqarolik jamiyatining asosini daxlsiz huquqlarga ega bo'lgan va shu huquqlarni amalga oshirishga yordam beradigan nosiyosiy tashkilotlari bo'lgan erkin individ tashkil etadi. Bu esa fuqarolar siyosiy madaniyatining yuqori bo'lishini taqozo qiladi.

Davlatga ham, fuqarolik jamiyatiga ham daxldor bo'lgan kuchlar - bu siyosiy partiyalar, harakatlar, fuqarolarning manfaatini ifodalaydigan guruhlardir.

Alohida shaxslarni bir-biriga nisbatan munosabatda mutlaqo erkin bo'lgan sohani fuqarolik jamiyati tashkil qiladi. Fuqarolik jamiyati ko'plab shaxslararo munosabatlardan va jamiyat aholisini birlashtiradigan ijtimoiy kuchlardan tashkil topadi.

Fuqarolik jamiyati har bir kishi o'z ixtiyori bilan shaxsiy manfaatlarini qondiradigan, erkin shaxslar o'zaro munosabatda bo'ladigan ijtimoiy va madaniy makon bo'lib hisoblanadi. Davlat esa, siyosat subyektlarini - davlat strukturalari, siyosiy partiyalar, bosim guruhi va boshqalarining faoliyati to'la qat'iy belgilangan makon hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati va davlat bir-birini to'ldiradi. Yetuk fuqarolik jamiyatisiz huquqiy demokratik jamiyat qurish mumkin emas. Chunki erkin ongli fuqarolargina insoniylik jamiyatini oqilona uyushtirishlari mumkin.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati erkin individ bilan markazlashgan davlat hokimiyati o'rtasida bog'lovchi mustahkam halqa bo'lsa, davlat avtonom shaxsni

⁹ История политических и правовых учений. Древний мир. М.: Наука, 1985. с.170.

huquq va erkinliklarini amalga oshirishga sharoit yaratib tarqoqlikka, tartibsizlik, inqiroz va tushkunlikka qarshi turishga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanib borishi jarayonida odamlarning huquqlari ham oshib boradi. Huquqning oshishi esa odamlar xatti-harakatida erkinlik chegaralarini kengaytiradi. Erkinlikning o'sishi odamlar xulqida ayrim deviant (og'ishlarni) o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunday o'zgarishlarni o'z vaqtida tuzatmaslik oxir oqibatda insoniy jamiyatning halok bo'lish darajasigacha buzilishiga, axloqsizlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun fuqarolik jamiyati shakllanib borishi jarayonida ijtimoiy axloq muhofazalanib, ma'naviyat yuksalib borishi zarur.

Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida ijtimoiy axloqning ahamiyati to'g'risida buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunday degan: **«Insoniyat faqatgina ilm va yuksak axloqiylik asosida yaxlit fozil jamoaga birlasha olishi mumkin»¹⁰**. Uning ta'limoti markazida yuksak ma'naviyatli va axloqli komil insonni shakllantirish g'oyasi yotibdi.

Jamiyat taraqqiyoti jipslikka, jipslik esa, odamlar o'rtasidagi munosabatning tartibga solinishiga bog'liq. Shu maqsadda insoniyat ikkita regulyatorni huquq va axloqni o'ylab chiqqan. Huquq majburiylikka, axloq esa, ixtiyoriylikka asoslangan. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati liberallashtirish ekan, demak, ikkinchi ijtimoiy tushuncha bo'lgan axloqning roli albatta ortib borishi kerak. Chunki axloq yuqorida aytilganidek ixtiyoriylikka asoslanadi. Bu esa axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyatning yuksalishini taqozo etadi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida esa birinchi ijtimoiy tushuncha bo'lgan huquqning mavqeyi nisbatan pasayadi, chunki fuqarolarning huquqi ortib boradi. Huquqlari ortib borishi oqibatida ular o'zlarini erkinroq his qila boshlaydilar, lekin erkinlik to'g'ri yo'ldan og'ish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa ijtimoiy axloq kuchaymagan holatlarda. Shuning uchun fuqarolik jamiyati shakllanishi sharoitida ijtimoiy axloq kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ana shunda ikkinchi ijtimoiy tartib me'yori bo'lgan axloq jamiyat jipsligini ta'minlab, taraqqiyotni belgilab beradi. Aks

¹⁰ Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шахри.Т.1993й. 186-б.

holda jamiyatda to'g'ri yo'ldan og'ish holatlari, buzuqlik, axloqsizlik kuchayib ketishi mumkin. Hozirgi kunda oilaning global inqirozi bunga yaqqol misoli bo'ladi. Bularga e'tibor bermaslik insoniyatni qirg'in qilish xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Payg'ambar Nux davrida insoniyat qirlishining asosiy sababi axloqsizlik, buzuqlikning kuchayib ketishi edi. Bunday ayanchli holat takrorlanmasligi uchun ijtimoiy axloq kuchayib, ma'naviyat yuksalishi lozim.

Bu borada Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarining ahamiyati benihoyat kattadir. Kitobning yozilishi muallifning nafaqat bir mamlakat, bir millat miqyosidagi, balki global miqyosdagi yetakchi ekanligini yaqqol ko'rsatib berdi. Asosiy vazifa endi kitobdagi g'oyalarni odamlarning ongi va qalbiga singdirishdan iborat. Bu g'oyalarni odamlar ongi va qalbiga singdirish esa, shu sohada ishlaydigan odamlarning bilimi, malakasi, tajribasiga va mas'uliyatiga bog'liq bo'ladi. Biroq adolat yuzasidan shuni e'tirof etish kerakki, o'z navbatida ular mahorati va mas'uliyatining yuksalishi jamiyatda ma'naviyatning qadr topishi bilan bog'liq. Ma'naviyatning qadr topishi esa, shu sohada ishlayotgan odamlarning qadri, mavqeyi va maoshi yuqori bo'lishiga bog'liq. Ma'naviyatning qadrlanishi ma'naviyatning yuksalishini ta'minlaydi. O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ana shu sharoitlarga tayangan holda, axloqiy tarbiyani kuchaytirib, ma'naviyat yuksaltirilsa, albatta, farovon jamiyat qurish imkoniyati kengayadi.

Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda qonunga rioya qilish hamda tartib-intizomni o'rnatish muhim rol o'ynaydi. Qonunga rioya qilish, adolatni qaror toptirish odamlarda **daxldorlik xissi** bo'lishini talab qiladi. Agar odamlarda loqaydlik kayfiyati kuchli bo'lsa, qonunga rioya qilishni ta'minlash murakkablashadi. Odamlardagi befarqlik hissini bartaraf qilish ma'naviyatning yuksalishi bilan bog'liq. Ma'naviyati yuksak odamning irodasi kuchli bo'lib, u adolatsizlikka befarq qarab to'ra olmaydi. U jamiyatda dahldorlik hissi bilan yashaydi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan adolatsizlikni bartaraf qilish odamlardagi befarqlik kayfiyatini yo'qotish demak. Odamlar

o'zlaridagi befarqlikdan halos bo'lib, -daxldorlik xissi bilan yashashlari uchun ma'naviyat yuksalishi lozim. Chunki ma'naviyat inson irodasini mustahkamlaydi.

Demak, ma'naviyatning yuksalishi jamiyatda ma'naviyatning qadr topishiga, ma'naviyatning qadr topishi esa, shu sohada ishlayotgan odamlarning qadr topishi va mavqeyining yuksalishi bilan, ma'naviyat namoyandalarining bilimi, malakasi, mas'uliyati va jamiyatda qonun ustivorligining ta'minlanishi, hamda, jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida hal qilinishi bilan belgilanadi. «Qorni och odamning qulog'iga gap yoqmaydi», deganday kambag'al, qashshoq odamlarga ma'naviyatni singdirish ancha murakkab masala.

Agar jamiyatda yuqorida keltirilgan omillar mavjud bo'lsa, ma'naviyatni yuksaltirish mumkin bo'ladi. Yana shuni aytish kerakki, tarbiya jarayoni va odamning qalbiga ezgu g'oyalarni singdirish ancha erta boshlanishi kerak. Olimlarning fikricha, inson butun hayoti davomida oladigan ma'lumotlarining 70% ini besh yoshgacha olar ekan. Buyuk xadisshunos olim Imom Al Buxoriy yetti yoshligida yuz minglab hidislarni yoddan bilganliklari ushbu fikrni tasdiqlaydi. Shuning uchun bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya bilan shug'ullanadigan tarbiyachilarning malakasi va mas'uliyati bilan ham jiddiy shug'ullanish kerak. Har bir ishni uzini mutaxassisi va ustasi bajarsa, ish samarali va sifatli bo'ladi. Tarbiya bilan mahoratli va mas'uliyatli tarbiyachilar shug'ullanishi kerak, albatta.

Ma'naviyatning yuksalishi ichki nazoratning kuchayishi bilan belgilanadi. Inson o'zini-o'zi nazorat qilib borishi zarur. Buning uchun odamlar qalbida ma'lum bir axloqiy o'zini nazorat qilishni ta'minlaydigan tamoyillar mavjud bo'lishi kerak. Ana shunda adolatni qaror toptiradigan hamda farovon jamiyat quradigan **nazorat tizimi** shakllanadi. O'zbekistonda ana shunday tizimni shakllantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Mana shu imkoniyatlardan to'g'ri foydalana bilish kerak xolos.

Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino o'zining «Yurak dorilari» risolasida: «ulug' Tangri inson yuragida ikkita bo'shliq yaratdi va shundan chap bo'shlig'ini ruhga o'rin qilib yaratdi¹¹», deb yozadi. Yurakning o'ng bo'shlig'i esa, inson qalbiga o'rin

¹¹ Абу Али Ибн Сино. Тиббий рисодалар. Т. 1987 й. 103 бет.

hisoblanadi. Ruh bilan qalb bir-biriga yaqin va bir-biriga uzviy bog'liqdir. Inson ma'naviyati qalbdan shakllansa, ma'rifati inson ongida shakllanadi va ular uyg'unlikda bo'lishi kerak. Biri ikkinchisidan o'zib ketsa ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois insonga ta'lim berish bilan birga tarbiya ham berish shart. Ma'naviyat insonning qalbidan shakllanar ekan, inson qalbiga ezgu g'oyalarni singib borishi, unda yuksak ma'naviyatni shakllanishiga olib keladi. Ma'naviyat deganda inson ongidagi shunday bir xususiyat tushuniladiki, bu xususiyat moddiy ehtiyojlardan ma'naviy ehtiyojlarni ustunligini bildiradi. Ruhiy, axloqiy va aqliy manfaatlarning moddiy manfaatlardan ustunligi inson ma'naviyatining mohiyatini anglatadi. Bunday ma'naviyatga ega bo'lgan inson albatta, baxtli bo'ladi. Chunki baxt deganda inson moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilganlik holatini tushunamiz. Insonning ma'naviyati yuksak bo'lsa, demak u o'z ehtiyojlarini jilovlay oladi. O'z ehtiyojlarini jilovlay oladigan odamning baxtli bo'lishi esa ancha oson. Inson baxtni o'ziga yaqinlashtirishi va o'zidan uzoqlashtirishi ham mumkin. Ma'naviyati yuksak bo'lgan odamlar o'z ehtiyojlarini jilovlash orqali o'zlariga baxtni yaqinlashtiradilar. Inson ma'naviyatini yuksaltirish uning qalbiga ezgu g'oyalarni singdirish bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviyat bir millatga, mamlakatga emas, bu butun insoniyatga daxldor masaladir. Chunki ma'naviyatning sayozlashib ketishi chegara bilmaydigan muammolarni, insoniyatning qirilishi, falokat yoqasiga borib qolishi xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xavfni oldini olish global insoniyat jamiyatida tartib urnatilishini takozo etadi. Buning uchun davlat xam, fukarolik jamiyati xam asosiy e'tiborni jamiyatda tartib urnatishga karatib nazorat tizimini takomillashtirib borishi lozim. Ular urtasidagi ijtimoiy xamkorlik asosan nazorat funksiyasini amalga oshirishda urnatilishi maksadga muvofikdir.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash qonun buzilgan vaqtda jazoning muqarrarligini kafolatlaydigan tizimning shakllanishiga bog'liq. Agar biror shaxs qonunni buzsa, uning jazosini yuqori lavozimda o'tirgan mansabdor shaxs emas, balki tizim berish kerak. Bunday tizimning shakllanishi ma'naviyatning yuksalishi bilan bog'liq bo'ladi. Chunki ma'naviyat inson iymonini baquvvat va vijdonini pok

qilib, daxldorlik hissini va unda ichki nazoratni shakllantiradi. Shunda jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoning muqarrarligini ta'minlaydigan nazorat tartibi shakllanishi mumkin.

Jamiyatda tartib intizom bo'lishi uchun nazorat mexanizmi ishlab turishi kerak. Nazorat ikki xil: ichki va tashqiga bo'linadi. Tashqi nazoratni qonun amalga oshirsa, ichki nazorat ma'naviyat asosida amalga oshiriladi. Ichki nazorat shakllanishi uchun axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ana shunda har bir odam o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qila boshlaydi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida huquqiy ta'sir nisbatan pasayib borishi sababli axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ana shunda qonun ustuvorligini ta'minlaydigan ichki nazorat kuchayadi. Bundan tashkari nazorat yukoridan va kuyidan bulishi mumkin. Yukoridan nazoratni davlat amalga oshirsa, kuyidan fukarolik jamiyati amalga oshiradi. Bizda xozirgi kunda nazorat asosan yukoridan amalga oshirilmokda. Kuyidan nazoratni amalga oshirish mexanizmi esa yetarli darajada takomillashgan emas. Ichki va kuyidan nazoratni samarali kilish ma'naviyatni yuksaklik darajasiga boglik buladi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash faqat huquq tartibot organlarigagina emas, balki shu jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolarga bog'liq. Odamlar qonunga rioya qilishga befarq bo'lmasa, ana shunda qonun ustuvorligi amalda ta'minlanadi. Qonunga rioya qilishni ta'minlaydigan ichki nazorat eng avvalo huquq - tartibot organlarida, ayniqsa, sud hokimiyatida shakllanishi zarur. Ayrim odamlar zamon konunlari beradigan jazodan kochib kutulishlari mumkin albatta. Bunday odamlarga nisbatan Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimovni iboralari bilan « oxiratdan kayerga kochasan ? » deb aytish mumkin. Lekin oxiratdan kurkish uchun odamda diniy kadriyatlar asosida ma'naviyat yuksak bulishi lozim.

Jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoning muqarrarligini ta'minlash hozirgi kunimizni farovon qiluvchi asosiy omildir. Biz ko'pincha boy o'tmishimiz va yorqin kelajagimiz bilan faxrlanib kelayapmiz. Lekin inson baxtli bo'lishi uchun u nafaqat o'tmish va kelajak, balki hozirgi kun bilan ham g'ururlanib yashashi kerak. Buning uchun konun ustivorligi va jazoning mukarrarligi amalda ta'minlangan bulishi

lozim. Ana shunda xar bir fukaro uzini erkin xis kilib kurkuvsiz yashashi mumkin. Insonning baxtliligi nafakat moddiy va ma'naviy extiyojlarini kondirilgan xolati bilan balki unda kurkuvni yukligi va erkin yashashligi bilan belgilanadi. Inson moddiy jixatdan kanchalik boy bulmasin agar unda erkinlik bulmasa va kurkuv kuchli bulsa bunday inson xech kachon baxtli bulaolmaydi. Insonning kurkuvsiz erkin yashashi konun ustivorligi va jazoning mukarrarligi amalda ta'minlanganligiga boglikdir. Bu esa ma'naviyatning yuksalishini taqozo etadi.

Shuning uchun Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridagi g'oyalarni eng avvalo huquq - tartibot organlariga va ayniqsa, sud hokimiyatiga singdirish lozim.

Demokratiya va fuqarolik jamiyati zamonamizning mohiyatini tashkil qiladi. Hozirgi kunda biror-bir davlat o'z taraqqiyotini demokratik tamoyillarsiz tasavvur eta olmaydi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi uchun demokratik tamoyillar mavjud bo'lishi shart. O'z navbatida demokratiya mavjud bo'lishi uchun esa yetuk fuqarolik madaniyati shakllanishi lozim. Demokratiya va fuqarolik jamiyati bir-birini taqozo qiladi.

Fuqarolik jamiyati insoniyat tamadduni muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda fuqarolik jamiyatisiz ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash, shaxs va jamiyat o'rtasida mutanosib munosabatni shakllantirish ham mumkin emas. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy mohiyati jamiyatda adolatli ijtimoiy tartibni o'rnatish, davlat tomonidan majburlovni cheklash va inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir. Ammo fuqarolik jamiyati shakllanishi va shaxs manfaatiga xizmat qilishi uchun odamlar ongiga demokratik g'oyalar singdirilishi hamda fuqarolik munosabati o'rnatilib, siyosiy befarqlik tugatilishi lozim. Qachonki bir fuqaro ikkinchi bir fuqaroning taqdiriga befarq bo'lmasa, ana shunda fuqarolik jamiyati shakllangan bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatining ma'naviy asosi bir mafkura va dunyoqarash yakkahukmronligining yo'qligi, vijdon erkinligi va ma'naviy-axloqiy yuksak madaniyat hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishida ma'naviy asoslar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviyat inson tarbiyasi bilan shug'ullanib,

uning axloqini va ma'naviyatini shakllantiradi. Fuqarolik jamiyatida esa axloq asosiy nazoratchi hisoblanadi. Hyech bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Jamiyatda demokratik qadriyatlarining o'rnatilishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishi aholi ma'naviyati va bilimdonligiga bog'liq. Faqat bilimli va ma'naviyatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishi mumkin va aksincha, bilimsiz, ma'naviyatsiz jamiyat esa avtoritarizm va totalitarizm tamoyillarini ma'qul ko'radi¹.

Respublikamizda aholi bilimi va ma'naviyatini oshirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Keng aholi qatlamlarini ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga sharoit yaratilgan. Milliy va jahon madaniyatining durdonalarini keng targ'ib qilish hamda ommalashtirish hozirgi yoshlarimizni, kelajak avlodni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i lozim.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida ma'naviy tarbiyaning ahamiyati ortib, asosiy e'tibor fuqarolar o'rtasidagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishga qaratilishi zarur, chunki fuqarolik jamiyatining mohiyati fuqarolar o'rtasidagi jipslik, birdamlikdan iborat, ya'ni bir fuqaroning ikkinchi bir fuqaroni taqdiriga befarq bo'lmasligidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, odamlarda fuqarolik ma'naviyati shakllangan taqdirdagina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi. Aks holda fuqarolik jamiyati faqat qonunlarda, qog'ozlarda qoladi. Zero bir fuqaro boshqa bir fuqaroga uning taqdiriga nisbatan befarq bo'lsa, har qanday yaxshi qonunlar ham ishlamaydi. **Ma'naviy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri – odamlardagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishdan iborat.** Buning uchun befarklikni sabablarini topish lozim buladi. Xush befarklikni sababi nimada? Befarklikni sababi nodonlik, egoizm va kolonial davr bulib xisoblanadi. Kolonial davr bu asosan sovetlardan keyingi makondagi davlatlarga ta'llukli. Chunki usha zamonlarda jamiyatda biror bir muammo paydo bulsa u muammoni markaz xal kilishi kerak

¹ .Набиев Ф.Х. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услугий қўлланма. Самарқанд 2007 й. 23-бет.

bulgan. Sovetlarga kadar muammoni podsho xal kilishi kerak bulgan bulsa, sovetlar zamonida Moskva xal kilishi kerak bular edi. Biz endi mustakil davlat ekanligimizni anglab olishimiz va unutmashimiz lozim. Befarklikni Yana bir sabablaridan biri egoizm uz manfaatini jamiyat manfaatidan ustun kuy ishni anglatadi. Agar odam uzida egoizmni jilovlay olsa befarklikdan xalos bulib daxldorlik xissi Bilan yashaydi. Boshkacha kilib aytganda u uz manfaatini jamiyat manfaatiga xizmat kildiradi. Fakt uz manfaatini uylab yashaydigan egoizmi kuchli bulgan odam adolat bilan razolat urtasidagi kurashda befark bulib yashaydi. Chunki u razolatni tazyikiga uchrab tinchligi buzilishidan kurkadi. Befarklikni sabablaridan biri nodondik ekanligini tushinish uchun oldin nodonlik nima ekanligini anglab olish lozim. Nodonlik bu bilmaslik . Nimani bilmaslik? Befarklik okibatida razolat galaba kozonishini, kimningdir xukuklari pymol kilinishini va xuddi shunday xolat ertaga uzi bilan takrorlanishi mumkinligini bilmaslik. Agar inson befarklik okibatida kimningdir xukulari paymol kilinishini va ertaga shunday xolat uzi bilan takrorlanishini bilsa u xech kachon befark bulmaydi. Muammoning murakkabligi shundaki inson oliy ma'lumotlt, xotto Fan doktori , professor bulishi mumkin lekin bir paytda nodon bulishi xam mumkin. Nodon bulmaslik uchun axlokiy tarbiya negizida ma'naviyat yuksalغان bulishi lozim.

I. 2. MA'NAVIYATGA E'TIBOR QILMASLIK OQIBATIDA OILA INQIROZINI KELIB CHIQUISHI.

Ma'naviy tarbiyada oilaning o'rnini kattadir. Tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Jamiyatning asosiy yacheykasi sanalmish bugungi kunda millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib, odamlarning ongiga demokratik qadriyatlarni singdirishga xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Tarix axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylandi. Bu esa fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omilidir.

Oila ma'naviyat manbai sifatida. Ma'lumki, bola oilada birinchi marta madaniyat va turmush bilan tanishadi, o'z xalqining urf-odatlarini va an'alarini, ona tilini o'zlashtirib oladi. Shaxs ma'naviyatiga, uning axloqiy fazilatlariga ilk yoshda oilada asos ko'yiladi, bu tushunchalar ijtimoiy tarbiya va ma'rifat tizimida rivojlanadi va shakllanadi. Shaxsning ma'naviy kamol topishi uchun kulay shart-sharoitlar yaratish ota-onalar va pedagoglarning u yoki bu yosh bosqichida axloqiy normalar o'zlashtirib olinishi konuniyatlarini qanchalik tushunishiga bogliq bo'ladi. Shaxsiy istak bilan jamiyat zxtiyohlari, o'z xtiyohlari bilan atrofdagilarning xoxish-istaklari o'rtasidagi karama-karshiliklarni yengib o'tishda oolaga aynan ota-onalar va pedagoglar yordam berishlari zarur. Axloq normalari va kadriyatlar shakllanishi qonuniyatlari mutaxassislarini xamma vaqt qiziqtirib kelgan. Jumladan, amerikalik psixolog Lourens Kolberg ma'naviy tanlash va akdiy rivojlanishning o'zaro aloqasini ko'rsatib beruvchi bolaning axloqiy rivojlanishi nazariyasini ishlab chikdi. Olim axloqiy rivojlanishga bagishlangan tadqiqotlar turkumida bolalar va o'smirlar oldiga gipotetik axloqiy dilemmalarni qo'yadi¹.

Shu maqsadda ularga ma'naviy tanlash imkoniyatini beradigan xikoya o'qib beriladi. Shundan so'ng ularga tekshiruvchilarning ma'naviy-axloqiy ustuvorliklarini aniqlash imkonini beradigan savollar beriladi. So'rab chikilayotgan xar bir kishi insonning u yoki bu xatti-xarakatini nima uchun to'g'ri yoki noto'g'ri

¹ Набиев Ф.Х. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й. 47-бет

deb xjoblashini tushuntirib berishi kerak. Bolalarning javoblari xususiyati asosida axloqiy rivojlanishning olti bosqichini o'z ichiga oladigan uch daraja ajratib ko'rsatiladi.

Bolaning axloqiy rivojlanishi darajasi nima uchun aynan shunday javob berganligiga, o'zining ustunlik berishi sabablarini tushuntirib berish uquviga karab aniqlanadi. Ko'ramizki, har bir keyingi bosqich oldingi bosqichga asoslanadi, uni o'zgartiradi va o'z ichiga oladi hamda ma'naviy mulohazalarni ishlab chiqishga yangi yondashuvlar va mezonlarni tayyorlaydi. Har qanday madaniy muhitda odamlar Kolberg nazariyasi bo'yicha ushbu boskichlarning barchasini u yoki bu tartibda bosib o'tadi. Tafovut fakat bosib o'tish tezligiga va ular u yoki bu bosqich doirasida qanchalik uzoqqa ketishidan iboratdir. Kolberg ma'naviy rivojlanish yakuniga o'rtacha 25 yoshda erishiladi deb hisoblaydi. Biroq rivojlanish davom etar ekan boskichlar izchilligi o'zgarmasdan qoladi.

Adabiyotlarda bolalarning axloqiy rivojlanishi konuniyatlarini yorituvchi boy material to'plangan. Ilmiy ishlanmalarga va pedagoglarning kasb mahoratini takomillashtirishga e'tibor berilishi ta'lim muassasalarining tarbiyaviy salohiyatini oshirish yo'llaridan biridir.

Aql bilan ish tutish, hayotni o'rganib yashashga intilish insonning asosiy fazilatidir. Maktablar bizga axloqdan saboq berib, aklimizni charxlab axloqiy tarbiyani amalga oshiradi; biroq axloqli bo'lish faqat aqlli bo'lish degani emas (garchi ko'pincha aynan aql bizga axloqiylikni anglab olishda yordam bersa ham). Odatda, o'quvchilarni, so'zning keng ma'nosida, ma'naviy kamol toptirish va tarbiyalashda o'qituvchilarga alohida majburiyat yuklanadi deb hisoblanadi.

Ko'pchilikka yaxshi ma'lum bo'lgan prinsiplardan biri axloqiy tarbiya birinchi navbatda ma'naviy fazilatlar shakllantirilishi deb ataladigan tushunchaga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi. Maqsad - odamlarni to'g'ri so'z, sofdil, adolatli, g'amxo'r, mas'uliyatli va nazokatli qilib yetishtirish, ya'ni ularda ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, ularga eng muhim ezguliklarni singdirish. Ma'naviy fazilatlarni shakllantirish bilan ilk bosqichda, bola axloqiylik hakida mulohaza yuritish yoshiga yetgunga qadar shug'ullanish lozim deyiladi. Bunga bevosita o'qitib

bo'lmaydi, gap ijtimoiylashuv haqida borayotgan bo'lsa kerak. Rolli modellar qadriyatlarini o'zlashtirib olib, maktabdagi axloqiy muhitni normativ muhit sifatida qabul qilib, rag'batlantirish va jazolash tizimi tufayli maktab o'quvchilarining ma'naviyati boyib boradi. Ular o'zlariga to'g'ri munosabatda bo'lishgani tufayli sofdil bo'lib yetishishadi, o'zlariga nisbatan g'amxo'rlikni his etishgani uchun boshqalarga g'amxo'rlik qilishadi. Bu xildagi axloqiy tarbiya barcha o'qituvchilarning majburiyatidir - chunki barcha pedagoglar rag'batlantiradi va jazolaydi. Ularning barchasi xulq-atvorning potensial namunalari hisoblanadi, ularning barchasi o'z sinflarida ma'naviy muhit yaratadi.

Shu munosabat bilan quyidagi savollar tug'iladi: o'qituvchi ushbu faoliyat bilan samarali shug'ullanishi uchun o'z faoliyatining ushbu jihatini ongli ravishda boshqa jihatlardan ustun qo'yishi zarurmi? Bunday tarbiya axloqiy qiyofani shakllantirishning oldinga qo'yilgan maqsadi uchun yetarlimi yoki uni nima bilandir to'ldirish kerakmi?

Ko'pchilik konservatorlar ma'naviy fazilatlarni shakllantirish aniq maqsadga yo'naltirilgan axloqiy (va, balkim, diniy) tarbiya vositasida yuz berishi kerak deb hisoblaydilar. O'qituvchilar pedagoglar to'g'ri deb hisoblaydigan va bolalar o'zlashtirib olishi kerak bo'lgan ma'naviy ko'rsatmalar va e'tiqodni mustahkamlash va asoslash uchun an'analar to'g'risida so'zlab berishi kerak¹.

Liberallarning yuqorida bayon etilganlarga zid nuqtai nazari kuyidagicha: tarbiya aqidaparastlikka aylanmasligi uchun uni tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak. Axloqli inson bo'lish shunchaki axloqiy deb hisoblanadigan (yoki shunday hisoblanishi mumkin bo'lgan) xatti-harakatlarni qilish deganigina emas, muqobil xulq-atvorni tushunish va shaxsning alohidaligini etirof etish ham shunga kiradi. Keyingi bir necha o'n yillikda ikki model: Kolberg modeli va qadriyatli tarbiya tarafdorlari tomonidan ishlab chiqilgan model ustunlik qildi.

Yosh psixologiyasi bo'yicha mutaxassis bo'lgan Kolberg nuqtai nazariga ko'ra, bolalar ma'naviy kamol topishning bir qancha invariant bosqichlarini bosib

¹ Оида маънавияти. Ўзбекистон Республикаси. Жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» Маркази. Ўқув қўлланма. Тошкент -2007 й. 27 – бет.

o'tishadi. Bolalar ayni vaqtda kamol topishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash va ma'naviy anglab olish metodini qo'llagan holda yuqori bosqichlarga o'tishda bolalarga yordam berish o'qituvchining vazifasiga kiradi. Qadriyatli tarbiya tarafdorlarining rejalari uncha katta emas. Ular bolalarga ruhiy bosim o'tkazmaslikka intilib, o'z oldilariga kamtarin maqsad qo'yadilar. Bu maqsad o'quvchilardagi mavjud ma'naviy qadriyatlarni tushunib olishga yordam berishdan, yangi qadriyatlarni taklif etmaslikdan iborat.

Ma'naviyat o'kish uchun yo'nalish bo'lib xizmat qiladi: uni yo'naltiradi, tartibga soladi, ba'zan cheklaydi va o'kish mazmunini belgilab beradi. Ijtimoiylashuv jarayoni maktab bilan cheklanib qolmaydi. Talabshshk davrida bo'lajak kasb faoliyatining asosiy yo'nalishi belgilanadi, qarashlar va atrof dunega munosabat shakllanadi. Ayni mana shu joyda dunyoqarashni, ma'naviy qadriyatlar tizimini, siyosiy va axloqiy ideallarni, shaxsning bo'lajak hayotiy muvofiqlashtiruvchi asosini tashkil etadigan barcha narsalarni shakllantirish muhimdir. Ta'limning axloqiy maqsadlariga gumanitar fanlarni o'qitish bilangina emas, balki sezgirlik bilan munosabatda bo'lish, oliy o'kuv yurtida ma'naviy muhit yaratish orqali erishiladi.

Odatda, yoshlar real hayot bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy muammolarni puxta tushinmasdan o'qishga keladilar: adolat nima degani va u bormi? Erkin bo'lish nima degani? Hayotning ma'nosi nimadan iborat? Odamlar o'rtasidagi munosabatlar nimalarga asoslangan? Yoshlarning oliy o'quv yurtida o'qish davrida ushbu va dunyoqarash bilan bog'liq boshqa savollarga javob topishlariga to'g'ri keladi.

Umuman qaysi bilimlar, hayotning mazmunini to'ldiradigan qaysi narsalar qadrlil hisoblanadi? Bular:

- sevgi;
- har xil hamjamiyatlarga (oila, mahalliy jamoa, an'anaviy madaniyat, mamlakat, umuman insoniyatga) mansublik va o'zini ularning bir qismi deb bilish;
- hayotdagi ma'naviy dastur (g'amxo'rlik qilish, boshqalarning iztirobini eng ko'p darajada yengillashtirish, adolatni tiklash, totuv va halol yashash);

- fidoyilikni talab qiladigan va odamlarning farovonligiga xizmat qiladigan ish;

- san'at;

- aql bilan ish tutish.

Jamiyat hayotida madaniy qadriyatlarni targ'ib qilish va yoyishda qatnashadigan jamiyatning madaniyat institutlariga, shuningdek, televideniye, adabiyot, kino va teatr ham kiradi.

Oilalar, bolalar va o'smirlarning dam olishi xilma-xil va mazmunli bo'lishi ham, «bo'sh» va destruktiv bo'lishi ham mumkin. Keyingi o'n yillikda dam olishni faol va ijodiy o'tkazish uchun resurslar va imkoniyatlarning pasayishi bolali oilalarning televizor atrofida dam olishiga olib keldi. Keyingi o'n yillikda shaharda ham, qishloqda ham o'sib kelayotgan avlodning dam olishida televideniye birinchi o'rindaturadi.

Televideniye deganda quyidagilar tushuniladi: 1) tasvir va ovozni masofaga uzatish bilan bogliq fan va texnika bir necha sohalarining yigma nomi; 2) ommaviy audiovizual kommunikasiya vositasi; 3) san'at turi.

Juda katta auditoriyaning ayni bir vaqtda axborotni idrok qilishi imkoniyati tufayli televideniye ma'naviy kommunikasiyaning juda katta kuchiga, muhim omiliga aylandi. Tomoshabin u yoki bu vokea to'grisidagi birinchi axborotga ishonadi va o'z nuqtai nazarini o'zgartirishga moyil bo'lmaydi. Televideniye tomoshabinlarni san'at, fan olamiga oshno qildi. Dasturlarning intellektual, ijodiy darajasi, jumladan, ommaning estetik ongini ham shakllantiradi.

Televideniye - bu axborot berish, ko'ngilocharlik va kamrok darajada ta'lim berish demakdir. Bolalar va o'smirlar imkoni bo'lgan barcha telekanallar va dasturlarni tomosha qilishadi. Ular bolalar va katta yoshdagilarga mo'ljallangan ko'rsatuvlarni birdek ko'raverishadi. Aynan televideniye keyingi o'n yillikda ko'p jihatdan yoshlarning qadriyatlari va xulq-atvor normalarini shakllantirmoqda. Kinofilmlar va reklama roliklari, seriallar o'zining muayyan koidalariga, xulq-atvor modeliga ega va ongga ta'sir ko'rsatadi. Biroq asosiy telekanallar tomonidan taqdim etiladigan mahsulot sifati mazmun va badiiy aks ettirish jihatidan past. Ko'plab

filmlar va seriallar asosan ko'ngilocharlikka mo'ljallangan, badiiy saviyasi yukori bo'lmagan omma uchun yaratilgan.

Televideniyeining ta'siri darajasi va oqibatlarini aniqlash uchun respondentlarga: «*Televideniye odamlar ma'naviy tarbiyasiga kay darajada ta'sir ko'rsatmokda?*», «*Televideniyeida odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etadigan kursatuvlar bulyaptimi?*», «*Agar «ha» degan bulsangiz. aynan kaysi kursatuvlarda bu hol namoyon bulmoqda?*» degan savollar berildi. So'rab chiqilganlarning atigi chorak qismi (25,0%) televideniyeining ma'naviy salohiyatini qayd etgan bo'lsa ham, respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (82,3%) aholini ma'naviy tarbiyalashda televideniyeining kuchini ta'kidlashdi. Respondentlarning 49,3 foizi televideniyeining ma'naviy tarbiyaga ta'sirini «yetarli darajada», 33,0 foizi esa «muhim darajada» deb baholaydi.

Televideniyeining ta'siri muxim darajada deb hisoblovchilar ulushi pasayganligini, televideniyeining rolini «kam darajada» deb belgilovchilar soni ko'payganligini ko'rsatadi (10,4%).

Ijtimoiy-kasbiy darajada quyidagilar kuzatiladi: davlat organlari (6,8%), ta'lim (15,9%) va sogliqni saqlash (15,9%) sohalari xodimlari, oliy ma'lumotli respondentlar (14,8%) televideniyeining ta'sirini «kam darajada» deb baholashga moyildirlar, so'rab chiqilgan o'rta ma'lumotli respondentlar (8,7%), uy bekalari (7,1%), ishsizlar (7,0%), o'quvchilar (5,3%), nogironlar (3,2%) javobning ushbu variantini ancha kam qo'llab-quvvatlaydi.

So'rab chiqilganlarning 58,0 foizi televideniyeining odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etadi. Jumladan, har to'rt respondentdan biri (25,7%) TVda odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir etadigan ko'rsatuvlar bor, har beshtasidan biri (20,0%) TVda salbiy ko'rsatuvlar ko'p, 12,3 foizi bunday ko'rsatuvlar juda ko'p deb javob berdi.

2003 yilga taqqoslaganda televideniyeining odamlar ma'naviyatiga u yoki bu darajada salbiy ta'sirini qayd qilganlar soni ko'paygan, bunday ko'rsatuvlar televideniyeida yo'q degan qat'iy fikrni bildirganlar soni deyarli ikki baravar kamaygan (2003 yilda - 37,8%; 2006 yilda-19,4%).

Millatiga ko'ra o'zbeklar boshqa millatlarga qaraganda TV ko'rsatuvlariga tanqidiyroq munosabatda bo'lishadi. Uzbeklarning 13,4 foizi ko'rsatuvlarning ko'pchiligi salbiy ekanligini qayd etadi. Qoraqalpoqlar bunday ko'rsatuvlar mavjudligini boshqalarga qaraganda ko'proq (30,8%) rad etadi. Ushbu milliy guruh bo'yicha mazkur ko'rsatkich 2003 yildagiga qaraganda ancha pasayganligini qayd etish lozim (59,0%).

Ko'rsatuvlarning ma'naviy mazmuniga eng ko'p darajda talabchan bo'lgan respondent qiyofasini quyidagicha tarzda tasavvur qilish mumkin: oliy ma'lumotlilar (16,3%), moddiy ahvoli juda yaxshi bo'lganlar (25,0%), fermer (27,3%) yoki ta'lim xodimi (22,7%), 40-49 yoshdagilar (14,2%), uylanganlar/turmushga chiqqanlar (12,9%).

Ushbu jihatdan respondentlar nuqtai nazarini aniqlashtirish odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ko'rsatuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi (82,0%) axloq pormalariga to'g'ri kelmaydigan filmlar va musiqali ko'rsatuvlarni mana shunday ta'sirning manbai deb hisoblaydi. Reklama (2,9%), O'zbekiston (2,5%) va Rossiya (2,2%) gelevideniyesining ayrim shou-dasturlari, jinoyatlar sharhi va huquq-tartibot bo'yicha ko'rsatuvlar so'rab chikilganlarning uncha ko'p bo'lmagan qismida e'tiroz tugdiradi. Rossiya televideniyesining shou-dasturlari ayollarga qaraganda (1,5%) erkaklarni (2,9%) ikki baravar ko'p g'azablantiradi. Uzbekiston televideniyesining ayrim ko'rsatuvlari va reklama 16-20 yoshdagilarning axloqiy tasavvurlariga muvofiq kelmaydi (tegishli ravishda 6,1% va 4,9%).

Shunday qilib, badiiy filmlar va musiqali shou-dasturlar odamlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishning asosiy manbai hisoblanadi¹.

Televizion ko'rsatuvlarni tomosha qilish ma'naviyatning haqiqiy ensiklopediyasi, har xil vaziyatlarda xulq-atvorning o'ziga xos «modellari» jami bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar televideniye o'zining baholovchi fikr-mulohazalarini bildirish, o'z nuqtai nazarini dalillash, ko'rilganga nisbatan o'z

¹. Оила маънавияти. Ўзбекистон Республикаси. Жамоатчилик фикрини ўрганиш «Ижтимоий фикр» Маркази. Ўқув қўлланма. Тошкент -2007 й.

munosabatini asoslash imkonini bersagina, bu hol yuz berishi mumkin. Bolani texnikaning (shu jumladan televideniyaning) «dumi»ga aylantirib qo'ymaslik uchun ham ommaviy axborot vositalari va kommunikasiyalarni nazorat qilish jihatidan, ham barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning salohiyatidan maqbul foydalanish jihatidan davlat va oilaning aniq nuqtai nazari zarur.

Ommaviy axborot vositatori tajovuz, zo'ravonlik, yovuzlik haqidagi materiallarga to'lib-toshib yotganligi yaxshi ma'lum. Bolalar real voqyeatarni realistik usulda beriladigan yolg'on voqyealardan ajratib olishi qiyin. Televideniyaning kundalik hayotning ko'p jihatlariga, jumladan, estetik did va tasavvurlar shakllanishiga ta'siri ko'p jihatdan madaniyatning boshqa turlaridan farq qilgan holda, televideniye o'zida uy muhitining bir qismini ifodalaydi (bu jihatdan u kinoga qaraganda radioga yaqinroq). Ushbu fakt o'z-o'zicha juda ko'p qirrali hamda turlicha tadqiqot nuqtai nazaridan har xil baholanadi. Televideniye ko'rsatuvlarining mazmunidan tashkari televideniyaning kuchli samaraga ega ekanligi - bu uni hamma vaqt ko'rish mumkin ekanligi, har bir uyda hozir bo'la olishi, uning odamlar hayotining katta qismi mobaynida millionlab fuqarolarni passiv tomoshabin darajasida tutib turish qobiliyatiga bog'liq. Televideniye oila va hamjamiyatning ichki o'zaro shaxsiy munosabatlarini juda kam darajaga keltirib ko'yadi. Tomosha qilingan ko'rsatuv to'g'risida bola bilan suhbat qilish bunday salbiy ta'sirni yengib o'tish usullaridan biri hisoblanadi. Bolalar bunday suhbatlar jarayonida qahramonning xatti-harakatlarini kattalar bilan birgalikda muhokama qilish, o'zining bahosi to'g'riligiga ishonch hosil qilish yoki undan shubhalanish imkoniga ega bo'ladi. Bolaga quyidagi savollarni berish foydalidir:

Bunchalik yovuzlik qilishga qahramonni nima majbur qildi?

Agar barcha odamlar yovuzlikka, adolatsizlikka mana shu tarzda qarshi kurashsa, nima bo'ladi?

Agar ushbu voqyealar real hayotda yuz bersa, inson qay ahvolga tushgan bo'lardi?

Siz qahramonning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

Axloqiy tarbiya uchun tanlash vaziyati atohida ahamiyatga ega. Bunday vaziyatlarda ma'naviy bir xatti-harakatni sodir etish qobiliyati namoyon bo'ladi. Ularga mustaqil ravishda ixtiyoriy qo'shilish ijtimoiy urinib ko'rish deb ataladi.

Bizga zamondosh bo'lgan odamlarning ko'pchiligining rasman ma'lumotga egaligi ularning ichki ma'naviyatiga muvofiq kelmaydi. Madaniy qadriyatlar ular tomonidan o'z-o'zicha emas, balki muayyan maksadlarga erishish, eng avvalo, lavozimda ko'tarilish, jamiyatda kattaroq mavqeyeni egallash vositasi sifatida idrok qilinadi.

Markaziy Osiyo tarixida ma'rifiy va ma'naviy jasoratni, diniy va qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'pi bo'lgan. Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar va xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning boy ma'naviy meroslari hozirgi kunda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslarining mohiyatiga e'tibor qilsak, barchasida erkinlashtirish g'oyasi ustuvorlik qilganligini ko'ramiz. Demak, fuqarolik jamiyatining muhim belgisi bu ijtimoiy - siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdir.

Demokratik tamoyillarning ustuvorligi va fuqarolik jamiyati elementlarining o'rnatilib borishi bilan fuqarolarning huquqlari ham ortib boradi. Huquqning ortib borishi esa, fuqarolar erkinligining ham o'sishiga olib keladi. Biroq, erkinlikning o'sishi esa o'z navbatida axloqsiz xatti-harakatni keltirib chiqaradi. Shu sabab fuqarolik jamiyati shakllanib borishi bilan axloqiy tarbiya kuchayib, ma'naviyat yuksalib borishi kerakligini yana bir bor ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Biror-bir davlat o'z taraqqiyotini ijtimoiy nazoratlarsiz tasavvur eta olmaydi. Fuqarolik jamiyatiga o'tishda esa, ijtimoiy nazoratchi bo'lgan huquqning roli nisbatan pasaya boshlaydi. Binobarin jamiyatning jipsligi va taraqqiyotini

ta'minlaydigan ikkinchi ijtimoiy nazoratchi bo'lgan axloqning roli ortib borishi lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatdan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun qonuniy barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Hamma gap endi odamlar ongiga demokratik g'oyalarni singdirishga bog'liq. Chunki bizda hozirgi kunda demokratiyaning shakli yaratildi. Endi uning mazmunini yaratmoq kerak. Bu esa odamlar ongiga demokratik kadriyatlarni sigdirish orkali dunyoqarashining rivojlanishi va hayotga ongli munosabatda bo'lishini taqozo etadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005 yilning 28 yanvarida Parlament qo'shma majlisida ma'ruza qilib: «odamlar ongiga demokratik qadriyatlarni singdirish»¹² asosiy vazifa ekanligini takror-takror aytganligini eslash lozim.

Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida ijtimoiy axloqni muhofazalashda o'zini-o'zi boshqarish organi bo'lgan mahallaning o'rni muhim. Chunki mahallada asrlar davomida odamlar o'rtasidagi munosabatlar aynan axloq, urf-odat, an'ana asosida tartibga solinib, nazorat qilib kelindi. Shuning uchun fuqarolik jamiyatiga o'tishda mahallaning ta'sirining ortib borishi va hokimiyat vakolatlari bir qismining mahallalarga o'tkazilishi, albatta, ijtimoiy axloq negizida ma'naviyatning kuchayishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy axloqqa rioya qilish qonunda belgilangan tartibga ko'ra, jismonan jazolash bilan emas, balki ma'nan ta'sir etish yo'li bilan kafolatlanadi. Axloqqa rioya qilish ya'ni har bir odam o'zini-o'zi nazorat qilishiga asoslangan bo'lib, u imon, insof degan ichki nazoratga bog'liq. Bunday tamoyillarga asoslanish esa ko'proq odamlarning tarbiyasiga va ayniqsa, diniy tarbiyaga bog'liqdir. Chunki din shunday qudratli kuchga egaki, u odamlarning ichki hissiyotlar asosida o'zini-o'zi nazorat qilishini ta'minlay oladi. Buning uchun unga tashqi ta'sir, ma'nan va jismonan ta'sir qilish zarur bo'lmay qoladi.

¹² Каримов.И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. Маърифат, 2005 йил, 29 январ, 2-бет.

Ijtimoiy axloqning shakllanishi tarbiya jarayoniga va eng avvalo, diniy tarbiyaga asoslanadi. Bu xususida O'zbekiston rahbari I.A.Karimov shunday yozadi: «Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axlokiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz»¹³

Axloq tushunchasining mohiyati va tamoyillarini o'rganadigan fan axloqiy me'yorlarning yuzaga kelishini tekshiradi, izohlab beradi, inson hulqini axloqiy talablar nuqtai nazaridan baholash mezonini ishlab chiqadi. Axloq tushunchasiga ilmiy ta'rifni falsafiy ta'limot bo'lgan etika fani quyidagicha beradi: axloq odamlarni jamiyatda o'zini tutishiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga doir talablarning yaxlit yig'indisi. Axloq jamiyatni tartibga soluvchi sifatida boshqa nazoratchi bo'lgan huquqdan shunisi bilan farq qiladiki, huquqiy me'yorlarni zarur bo'lganda davlat majburiyati yo'li bilan bajaradi, axloqiy me'yorlarga rioya qilish esa jamoatchilik fikri, ko'proq mahalla ta'siri bilan bajartiriladi.

Demak, axloqqa rioya qilishni ta'minlovchi kuch – bu avvalo **jamoatchilik fikridir**. Ammo axloq faqat jamoatchilik fikri bilan mavjud emas. Odamning tabiiy tuyg'ulari va tarbiya jarayonida shakllangan burch hissi muayyan axloqiy xatti-harakatga olib keladi. Axloqiy me'yorlar yoki tamoyillar odam ongida buyruq shaklida paydo bo'ladi va kishilarni ezgu ishlar qilishga undaydi, yovuzlikdan, razolatdan asraydi. Bunday buyruqlar «Tuhmat qilma», «Yolg'on so'zlama», «O'zgalar taqdiriga befarq bo'lma», «Boshiga kulfat tushgan odamga yordam ber», «Zaif, nochor odamlarni qo'llab-quvvatla» va kabilar bo'lishi mumkin. Ammo ushbu buyruqlar qandaydir tashqi ta'sirdan emas, balki insonning e'tiqodidan, ichki sabablar asosida kelib chiqishi lozim. Masalan, «Tuhmat qilma» degan buyruqda bir odam boshqa odamga tuhmat qilmasligiga ijtimoiy zarurat borligini anglab yetishi kerak. Agar odamlar o'rtasida tuhmat, yolg'on gapirish ko'paya borsa, bunday jamiyat boshqarib bo'lmaydigan son-sanoqsiz ziddiyatlardan iborat bo'lib qoladi va muqarrar halok bo'ladi. Shu o'rinda Muhammad payg'ambar (a.v.s.)ning quyidagi

¹³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент «Ўзбекистон», 1997й. 44 бет.

hadislarini eslash lozim. Hadisda shunday deyiladi: «Shariatga qarshi borish, ota – onaga itoat qilmaslik va yolg'on gapirish, tuhmat qilish gunohi azimdir»¹⁴.

Demak, axloqiy tamoyillar kishi ongida buyruq shaklida paydo bo'lib, o'sha buyruqni bajarish uchun ijtimoiy zarurat borligini anglatadi. Ammo biz bu zaruratni burch sifatida idrok etib, shu ishdan ko'zlangan maqsadni qabul qilamiz va ma'qullaymiz, unga yetish uchun harakat kilishga tayyorligimizni bildiramiz. Shunday qilib, axloqiy me'yorlar odamning xatti-harakatini faqat obyektiv qoidalar bilangina emas, balki burch, vijdon talablari bilan ham tartibga solib turadi.

Yana ta'kidlash joizki, axloqiy xatti-harakat insoniy jamiyati taraqqiy etib borishi bilan boyib boradi va shuning uchun axloq har doim ham rasm bo'lgan qoidalarga bo'ysunavermaydi. Burch tuyg'usidan kelib chiquvchi tashabbuskorlik, yangilikka intilishlik yoki qahramonona xatti-harakat yangi fikrni, ya'ni axloqiy mezonni vujudga keltirishi mumkin. Masalan, Milliy istiqlol g'oyasining inson qalbiga singdirilishi unda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi maqsadida xizmat qiladigan mas'uliyatni shakllantirishi mumkin. Bu mas'uliyat fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda o'tmish ajdodlari va kelajak avlod oldida javobgarlikni, burchni his qilish tuyg'usini hosil qiladi. Bunday burch esa odamlarni jamiyat manfaati yo'lida fidokorona xatti-harakatlarga undaydigan ma'lum bir axloqiy me'yorlarni yuzaga keltiradi¹.

Har bir davrning xususiyatiga mos ijtimoiy axloq tamoyillari bo'ladi. Chunki insonning ma'naviy mohiyati turlicha talqin qilinadi va shunga muvofiq keladigan axloqiy tamoyillar ilgari suriladi. Masalan G'arb mamlakatlari axloqining asosiy tamoyillari egoizm (xudbinlik) va individualizm (yakkalik)dir, chunki ular inson o'zining tabiiy mohiyatiga ko'ra egoist-xudbin, faqat shaxsan manfaatdor bo'lganligi uchungina jamiyatga yaxshilik qilishga qodir degan qoidaga asoslanadi. Sharq mamlakatlarida esa, ijtimoiy axloq boshqa tamoyillarga, ya'ni altruizm va jamoaviylik tamoyillariga asoslangandir. Biz hozir G'arb va Sharq axloqiy tamoyillari xususiyati to'g'risida munozaraga kirishmasdan ko'pchilik davlatlar

¹⁴ Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. Т.4.Тошкент, 1992 йил. 80 бет.

¹ Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент. 2007 й.

tomonidan tan olingan tamoyillarning mavjudligini ta'kidlaymiz. Ular quyidagilar: har bir insonning millati, dini, irqidan qat'iy nazar uni unikal deb hisoblash; inson qadr-qimmatining ustuvorligini tan olish; shaxsiy bilan jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish; kishining to'la ozodligini amalga oshirish; inson hayotini farovon qilishga intilish; o'zgarar taqdiriga befarq bo'lmaslik va boshqalar. Ushbu tamoyillarga rioya qilish umumiy maqsad bo'lgan farovon jamiyatning va har bir kishining baxt-saodatga erishishini ta'minlaydi. Ijtimoiy axloqni o'ziga xos xususiyati jamiyat a'zolarini yagona maqsadga – farovon jamiyat qurishga tayyorlashdan iboratdir.

Insoniy jamiyatning turli davrlarida zamon mohiyatidan kelib chiqib, axloqiy tamoyillar ham o'sha davrga mos bo'lgan. Biroq shunday bo'lsa ham, barcha zamonlar, millatlar, irqar va barcha tuzumlarga mos keladigan axloqiy tamoyil bo'lishi mumkin. Masalan «mening yaqinlarim manfaati, mening shaxsiy manfaatimdan muhimroqdir» degan axloqiy tamoyil turli davrlardagi barcha jamiyatlarga taalluqli. Chunki bu tamoyil hayot mazmuniga asoslangan. Hayot mazmuni esa, barcha zamonlarda bir xil bo'lgan, ya'ni hayotning davomiyligini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Hayotning davomiyligini ta'minlash esa o'zgalarning, yaqinlarning manfaati muhimligini tan olishni taqozo etadi. Bundan tashqari o'zingiz o'ylab ko'ring, biz har birimiz xudbin bu yomon, yovuz odam yaxshi odam esa avval boshqalar to'g'risida, so'ngra o'zini o'ylaydigan odam deb hisoblaymiz. Biologik jihatdan qaraganda «men» bu alohida zot, «yaqinlar» esa barchani, ya'ni turni bildiradi. Biologik nuqtai nazardan esa turni saqlab qolish hayot mazmunini anglatadi. Boshqa tomondan yakka shaxs faqat jamiyatning, umumiylikning qismi sifatidagina mavjud bo'ladi. Bunda umumiylik individsiz mavjud bo'lishi mumkin, u esa umumiyliksiz mavjud bo'la olmaydi.

Darvoqe, qadim zamonlardan mavjud «Nima uchun taqvodor odam baxtsiz, razil odam baxtli?» degan savolning javobi ham aynan shunda yotibdi. Alohida odamning baxti muhim emas, balki «mening yaqinlarim» deb atalgan odamlar jamoasining baxti muhim ahamiyatga ega va aytish kerakki, o'sha kam sonli taqvodorsiz odamlar jamoasi ham halok bo'lishi mumkin. Insoniylik jamiyati,

tabiati shunday yaratilganki, faqat ayrim odamlar taqvodor bo'ladilar, aks holda insoniyat o'zini-o'zi qirishi mumkin. Insonni taqvodor qiladigan tug'ma kuch bu vijdon va imondir. Insoniyat jamiyati mavjud bo'lishi uchun faqatgina ayrim odamlar taqvodor bo'lishlari yetarlidir. Shuning uchun «yaqinlarimning manfaati, mening manfaatimdan muhimroqdir» degan axloqiy tamoyil barcha davrlarda barcha xalqlarga taalluqli bo'ladi. Aynan ana shu axloqiy tamoyil boshqalari asosini tashkil qilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Insoniyat jamiyati o'zining keyingi mavjud bo'lishini ta'minlash uchun ma'lum bir axloqiy me'yorlarga asoslanishi lozim. Inson o'zining faoliyatida ma'lum bir me'yorlarga va chegaralarga rioya qilishi zarur. Ana shu chegaralarni buzmaslik axloqiy qoidalar orqali ta'minlanadi. Ayniqsa, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan sharoitda odamlar o'rtasidagi munosabat o'zaro ishonchga, imonga asoslangan bir paytda axloqiy me'yorlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shu o'rinda Payg'ambar Nuh davrida insoniyatning qirilishiga aholining axloqsizligi sabab bo'lganligini yana bir bor eslash lozim¹.

Donishmandlarning aytishicha, insonning xarakatlari ostida o'zini-o'zi qirish xavfi yashirinib yotar va u anglamagan holda o'ziga qarshi harakat qilar ekan. Bunday xavfni kamaytirish tarbiya jarayoniga bog'liq. Chunki tarbiya insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi uchun kerak bo'lgan ijtimoiy axloqni va ma'naviyatni shakllantiradi. Ana shu axloq insonning o'z xatti-harakatida me'yordan, chegaradan chetga chiqmasligini ta'minlaydi. Har qanday xarakatning, extiyojning o'z chegarasi, me'yori bo'lishi kerak. Chegaraning buzilishi axloqsizlik va ma'naviy buzuqlikni keltirib chiqaradi. Bu esa har qanday jamiyat uchun xalokatlidir. Buning oldini olish uchun nafaqat davlat, balki butun jamiyat va har bir fuqaro me'yor, chegara buzilishiga nisbatan befarq bo'lmasdan, daxldorlik hissi bilan yashashi lozim.

Inson jamiyatdagi voqealarga nisbatan befarq bulmasdan daxldorlik xissi bilan yashashi uchun unda ichki nazorat kuchli bulishi lozim . Ichki nazorat adolat va razolat urtasidagi kurashda befarq bulmasdan adolat tarafida bulishni ta'minlaydi.

¹ Набиев Ф.Х. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й. 53-бет

Buning uchun inson uzini uzi anglab kimning izmida yurganligini bilishi lozim. Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida odamlarni dunyokarashiga karab ikki guruxga bulinishini ta'kidlab kimdir raxmon izmida yursa, kimdir shayton izmida yuradi deb yozadi. Xar bir inson uziga men kimning izmida yuribman degan savolni berishi va unga javob berishda uziga yolgon gapirmasligi lozim. Gap shundaki ayrim odamlar shayton izmida bula turib uzini raxmon izmida deb xisoblaydi yoki razolat tarafida bula turib uzini adolatli deb xisobdaydi. Ularga nisbatan Muxtaram Prezidentimizni iboralari bilan aytganda ayrim odamlar zamon konunlari beradigan konunlardan kochib kutulishi mumkin lekin oxiratdan kayerga kochasan ? deb aytish mumkin.

Demak **fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim sharti – bu befarqlik kayfiyatidan xalos bo'lib, daxldorlik hissi bilan yashashdir.** Befarqlikni bartaraf qiladigan va daxldorlik hissini shakllantiradigan kuch – bu milliy g'oyadir. O'zbekiston fuqarolari dini, irqi, millatidan qat'iy nazar bir-biriga nisbatan befarq bo'lmasligi kerak. Bir fuqaroning boshqa fuqaroga befarq bo'lishi millatga nisbatan befarqlikni anglatishi mumkin. Buning uchun milliy g'oya odamlar qalbidan joy olgan bo'lishi kerak. Ana shunda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladigan eng muhim omil, ya'ni fuqarolik munosabati shakllanadi. Milliy g'oyaning odamlar qalbiga singdirilishi odamlardagi befarqlik kayfiyatiga barham berib, daxldorlik hissini shakllantiradi. Bu esa fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Demokratik davlatdan fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Chunki jamiyatni tartibga soluvchi bo'lgan axloq o'z-o'zidan shakllanmaydi. Biz doimo boy ma'naviy merosimizni, urf-odat, an'analarimizni zamon talablaridan kelib chiqib boyitib borishimiz lozim. Ana shunda biz fuqarolik jamiyati sharoitida yashay oladigan yetuk fuqarolik munosabati shakllangan va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan kishilarga ega bo'lamiz. Bu esa ozod, obod farovon jamiyat qurishning muhim omilidir.

Zamonamiz mohiyati bo'lgan fuqarolik jamiyatining shakllanishida va xalqimiz hayotini farovon qilishda yuksak ma'naviyat asosiy me'zon hisoblanadi.

Yuksak ma'naviyatning shakllanishida esa axloqiy tarbiya asosiy omildir. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridagi g'oyalarning mazmun-mohiyatini odamlar ongiga va qalbiga singdirish bosh maqsadimiz bo'lgan farovon jamiyatni qurishga xizmat qiladigan yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi manba bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz. Chunki asarda ma'naviyatning ma'no-mazmuni, hayotimizdagi o'rni va ahamiyati to'liq yoritib berilgan. Buni ma'naviyatga berilgan tugal ta'rifdan ham ko'rsak bo'ladi: **«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»¹⁵. Ushbu ta'rifdagi ruxan poklanish va kalban ulgayish goyalari buyuk Ibn Sinoning ulug Tangri inson yuragida ikkita bushlik yaratdi shundan chap bushligini ruxga kilib yaratdi degan suzlari bilan uygunlashib ketganligi uni nakadar tugal va mukammalligini kursatib turibdi.**

Jamiyatda ma'naviyatni rolini yanada oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

-Jamiyatni ilm va ma'rifat boshkargandagini tartib, tarakkiyot va farovonlikni ta'minlash mumkin. Ma'naviyat jamiyat tarakkiyotini asosiy sharti bulgan tartibni urnatishda muxim axamiyatga ega.

-Jamiyatda ma'naviyatni kadr topishi xokimiyat tizimida ma'naviyatni yuksalishiga boglik. Xokimiyatni ma'naviy yuksalishi esa saylov jarayonida ma'naviy saloxiyat asosiy mezonlardan biri bulishiga boglik. Chunki ma'naviyatni kadrlash uchun usha odamning uzida ma'naviyat yuksak bulishi lozim.

-Jamiyatda ma'naviy yuksalish Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning « Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlaridagi goyalarni odamlar ongi va kalbiga singdirilishiga boglik. Bu borada davlat va fukarolik jamiyati urtasida ijtimoiy xamkorltk aloxida axamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fukarolik jamiyatini shakllanish jarayonida odamlarning xukuklari ortishi okibatida xulkni erkinligi kengayishi va u

¹⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т. 2008й 19-бет.

esa uz navbatida tugri yuldan ogish xolatlarini keltirib chikarishi ushbu jarayonda ijtimoiy axlok negizida ma'naviyatni yuksalishini takozo etadi. Bizning mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'naviyatni yuksaltirishga qodir, yetuk ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan xalq va lider mavjuddir. Utmishga sadokat, xozirgi kunga kadr va kelajakka umid bilan karash xalkimiz ma'naviyatini yengilmas kuchga aylanishini muxim omilidir.

II VOB. IJTIMOIIY ISH TIZIMINI SHAKLLANISHI OILANI MUTS'HKAMLASHDAGI AHAMIYATI.

1. O'zbekistonda ijtimoiy ish tizimini shakllanishi.

Insoniyat jamiyati shakllanibdiki odamlar farovon jamiyatni orzu qilib yashamoqda va bunday jamiyatni qurishni davlat bilan bog'lab kelishmoqda. Davlat o'zini ijtimoiy siyosati orqali aholini ijtimoiy himoyasini amalga oshiradi. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun ushbu sohada ishlaydigan professional kadrlargi ehtiyoj paydo bo'ladi. Ana shunday ehtiyojni qondirish zarurati ijtimoiy ish sohasida ishlaydigan kadrlarni professional darajada tayyorlash tizimini shakllanishiga olib keldi. Ijtimoiy ish sohasidagi professional kadrlar aholini ijtimoiy himoyasini amalga oshirib ijtimoiy siyosatni samarali qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiy munosabatlarga asoslangan odil, erkin demokratik jamiyat qurishga harakat qilmoqda. O'tish davrining tamoyillaridan biri – kuchli ijtimoiy siyosat ijtimoiy sohani har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun bu soha davlatning alohida e'tibori va nazoratida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14 yilligi munosabati bilan bo'lgan tantanali yig'ilishda Prezident I.A.Karimov 2007 yilni «Ijtimoiy himoya» yili deb e'lon qildi. Bu tom ma'noda ijtimoiy sohaning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy himoya keng qamrovli tushuncha bo'lib, aholini yordamga muhtoj qismini manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirishni anglatadi. Ijtimoiy himoya yilida davlat siyosatining ushbu yo'nalishi ustivor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu borada Respublikamizda endi shakllanayotgan ijtimoiy ish tizimi asosiy o'rinni egallaydi. Ijtimoiy sohada ishlaydigan kadrlarni professional darajada tayyorlashni yo'lga qo'yilishi, xususan Respublikamiz Oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy ish yo'nalishlarini ochilishi ijtimoiy siyosatni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ish va bu sohada faoliyat ko'rsatuvchi xodimning vazifasi nimadan iborat? Ijtimoiy soha xodimi jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarga, muammolarga boshqalardan ko'ra tezroq va to'g'riroq yondashib, odamlarning o'zaro munosabatlaridagi muammolarini hal etishga, shuningdek, odamlarning turmush farovonligini oshirishga, imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamiga yordam berishga xizmat qiladi.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhga ko'maklashish ijtimoiy ishning negizini tashkil etadi.

Ijtimoiy ish sohasining asosiy obyekti jamiyatning zaif, nochor, imkoniyati cheklangan guruhlari bo'lib, ular tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

- ota-onasiz, qarovsiz qolgan bolalar;
- kam ta'minlangan oilalar;
- ishsizlar;
- nogironlar;
- ko'p bolali oilalar;
- giyohvandlar, ichuvchilar;
- nafaqaxo'rlar;
- farzandsiz keksalar;
- yolg'iz onalar;
- bevalar;
- kasalmandlar;
- oilada zo'ravonlikdan aziyat chekuvchilar;
- qamoqxonalarda jazo muddatini o'tayotganlar yoki o'tab qaytganlar;
- huquqbuzarlar;
- jinoyatchilar;
- fohishalar;
- ekologik noqulayliklarda yashovchi aholi va b.

Demak, ijtimoiy ish ko'p tarmoqli va ko'p darajali bo'lib, unga tizimli yondashishni talab etadi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanish tarixi ham uzoq moziyga borib taqaladi. Sharq mamlakatlarida, jumladan, Turon zaminida Movarounnahrda halqning zaif qatlamlariga e'tibor berish an'anasi bo'lganligiga tarix guvohdir.

Ijtimoiy sohaning rivojlanish tarixiga nazar solsak, bu sohada insoniyat jamiyati vujudga kelibdiki, tabiiy va ijtimoiy tengsizlik bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lgan. Jamiyat rivojlanib borish bilan ijtimoiy muammolar ham o'zgarib borgan. Har bir davr o'ziga xos ijtimoiy muammolarni tug'dirgan. Insoniyat jamiyatining ilk davrlarida rizq-ro'z topish bilan bog'liq faoliyat ko'proq jamoaviy tus ola borgan. Mayib-majruhlarga yordam berishning amaliyoti sodda bo'lsada shakllana borgan. Qadimgi jamiyatda odamlarni yirtqich hayvonlardan va boshqa xavf-xatardan himoya qilish an'anaga aylanib borgan. To'g'ri, himoyaga muhtoj odamlar rivojlanmagan jamiyat tartiblariga dosh berolmay aksariyat hollarda qirilib ham ketardilar.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan odamlarning ijtimoiy uyushmasi, birlashmasi takomillashib borishi, va nihoyat davlatning vujudga kelishi bilan odamlarni ijtimoiy himoya ostiga olish an'anasi kengaya bordi. Altruizm inson zotiga xos yuksak fazilat bo'lib, egoizm – o'zim bo'layin tor manfaatdorlik, manfaatparastlik individualizmi aqidasiga qarshi qaratilgan. Insonga bo'lgan rahmdillik, xayr-ehsonli bo'lish fazilati ham doimo kengayib, rivojlanib borgan. Shuning uchun ijtimoiy ish va xizmatning o'tmish tarixini hozirgi zamon bilan qiyosiy o'rganish ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki aholini ijtimoiy himoyalash an'anasi dastlab odamlarning bevosita o'zlaridan boshlanib, asta-sekin jamoaviy tus olib borgan.

Davlatning vujudga kelishi bilan esa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga e'tibor qaratish, g'amxo'rlik qilish rasmiylashib bordi va asta-sekin siyosat darajasigacha ko'tarildi. Davlatchilikning rivojlanishi bilan ijtimoiy himoya tizimi ham takomillashib bordi. Davlat qanchalik rivojlanib borsa, o'z fuqarolarining sosial

himoyasini shunchalik takomillashtirib boradi. Demak, jamiyat, davlat rivojlanib borishi bilan ijtimoiy soha ham rivojlanib boraveradi.

Sharq mamlakatlarida ijtimoiy soha rivojlanishining o'ziga xosligini tushunish uchun milliy tariximizga murojaat qilsak. Ayniqsa, tarixiy ko'tarilish yillari tajribasini o'rganishimiz muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz hayotida bunday tarixiy davrlarni bir qanchasini ko'rsatish mumkin. Bularning ichida eng yorqin davr Amir Temur hukmronligi davri hisoblanadi.

Sohibqironning markazlashgan davlat tizimi nafaqat harbiy, shuningdek, madaniy, iqtisodiy rivojlanish va savdo-sotiqni kengayishi bilan ham ajralib turadi. Amir Temur saltanati davri xalqaro munosabatlarda o'zaro manfaatli savdo – iqtisodiy aloqalarni rivojlanish davri bo'lib, bu davrda savdo va iqtisod davlat tomonidan rag'batlantirilgan va himoya qilingan. Bu davr jahon tarixiga nafaqat fan, madaniyat va san'at gullab-yashnagan davr bo'lib kiradi, shuningdek, savdo, ziroatchilik, umuman, iqtisodning rivojlanishi aholining turmush tarzi, ayniqsa, nochor qatlamiga g'amxo'rlik qilishga katta e'tibor qilingan davr bo'lib hisoblanadi.

Uning tuzuklarida qayd qilinganidek davlat siyosatining asosini qonunga rioya qilish, xalqning ahvolini bilish, mazlum xalqlarni zulmdorlardan ozod qilish tashkil qilgan. U xalqni ahvolidan vositachilar orqali emas, balkim bevosita, to'g'ridan-to'g'ri o'zi xabardor bo'lishga ham intilgan.

Jumladan, Amir Temur Mavorounnahr aholisini 3 yilga soliqlardan ozod qildi. Natijada aholining hayot darajasi ko'tarila boshladi. Ishlab chiqarish ham ko'tarila boshladi. Qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirganlar, sug'orish kanallarini qurgan, aholini bir necha yillarga soliqlardan ozod qilishlar ijtimoiy siyosatning namunasi edi. Amir Temurning oqilona ijtimoiy siyosati mamlakatni iqtisodiy rivojlanishiga, bu o'z navbatida ijtimoiy sohaning rivojlanishiga olib keldi¹.

Amir Temur olim va shoirlarga, missionerlarga, ma'naviy-madaniy soha namoyandalari, din peshvolari, xalq xizmatkorlariga alohida e'tibor qildi. Ularga xonaqolar qurgan, bepul turli yordamlar ko'rsatgan, ijodiy faoliyatini

¹ Ф.Х.Набиев. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й.

rag'batlantirgan. Bu siyosat aholining barcha tabaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilanishiga yordam bergan.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy soha XIX asrda institutlashdi, ya'ni davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va yuz yildan ko'proq vaqt davomida rivojlanmoqda. Eng muhimi G'arbning yetakchi universitetlarida sosial sohada xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlash tizimi vujudga keldi va rivojlanmoqda.

Kezi kelganda quyidagi holatni ta'kidlash joizdir: postsovet mamlakatlarda ijtimoiy sohani va uning ajralmas tarkibiy qismi - ijtimoiy himoyaning rivojlanish darajasini, ijtimoiy adolat tamoyillarini buzilishining o'ziga xos sabablari bor. Sovet davrida hukmronlik qilgan utopik g'oyalar moddiy ishlab chiqarish imkoniyatlariga subyektiv yondashish, umuman, ijtimoiy sohaga ham sinfiylik nuqtai nazaridan yondashilgan bo'lib, barchani turmush darajasini asossiz tenglashtirish, baravarlashtirish siyosati, ayniqsa, moddiy manfaatdorlik tamoyiliga katta zarar yetkazdi. Sobiq sovet makonidagi xalqlarning tarixiy, milliy, diniy rivojlanish xususiyatlari, jumladan, aholini ijtimoiy himoya qilish an'anasi hisobga olinmasdan barchaga bir o'lchamda qarash aqidasi hukmronlik qilardi. Bu hududlar socialistik g'oyani jadal va zo'ravonlik bilan amalga oshirish uchun o'ziga xos tajriba maydoniga aylangan edi. Chunki xalqning sabr-toqatliligi, adolatsizliklarga qarshi ochiq chiqolmasligi hukumatga qo'l kelardi. Davlat sosializmi umuman, ijtimoiy hayotni jumladan, ijtimoiy himoya tizimini «tenglashtirish», «baravarlashtirish» modelini belgilab berdi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usulini o'zgartirishni majburan jadallashtirish (xalq xo'jaligini industlashtirish, kollektiv-lashtirish va madaniy inqilob) sur'ati, muddatini sun'iy ravishda qisqartirish rejasi amalga oshirilib borildi. Bu siyosat aslida ijtimoiy adolat prinsipiga katta zarar yetkaza boshladi.

Sovet davridagi ijtimoiy himoya tizimining yana bir muhim hususiyati shu ediki, nafaqat kambag'al-qashshoqlarga, imkoniyati cheklangan aholi qatlamiga yordam ko'rsatish ayniqsa, revolyusiya qurbonlari oilalariga haddan tashqari yordam ko'rsatish siyosati mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qila boshladi.

Buning eng salbiy tomoni shuki, ana shu toifa odamlarda beg'amlik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi. Vaholanki, totalitar tuzumga qadar mavjud bo'lgan sosial muammolarni hal qilishda davlat mablag'laridan tashqari o'ziga to'q oilalarning insonparvarlik yordamlari, fuqarolarni turli xil xayr-ehsonlari, diniy tashkilotlarning yordam ko'rsatishlari ta'qiqlandi. Endilikda aholining ijtimoiy himoyasining yangi tizimi – milliy, diniy an'ana-larga asoslangan tizimi rivojlanmoqda. Bu tizim milliy qadriyatlarimizga asoslangan bo'lib, u eng avvalo mavhum emas, balki aniq yo'naltirilgan siyosat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Demak, ijtimoiy himoya tizimining yangi modeli ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qismiga differensial yondashuv bo'lib, ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatini namoyon etmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy ish va xizmatni kasbiy professional darajaga ko'tarilishida ta'lim, ayniqsa, oliy ta'lim tizimi muhim rol uynaydi. Eng muhimi Respublikada ijtimoiy himoya tizimining takomillashtirish siyosati mamla-kat iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari bilan muvofiqlash-tirilmoqda.

Umuman, ijtimoiy farqlarsiz rivojlanish bo'lmaydi. Ko'proq odamlarning tabiiy va intellektual qobiliyati bilan bog'liq xuddi shu ijtimoiy tafovut, farqlar odamlar faoliyatini harakatga keltiradi. O'zlarini boshqalardan orqada qolmasligi uchun jamiyat ijtimoiy zinapoyasidan o'ziga munosib o'rin joy olish uchun harakat qiladilar, kurashadilar. Ayniqsa, bu harakat va faoliyat bozor iqtisodiy munosabatlari sharoitida muhim rol o'ynaydi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida «Sosial ish» mutaxassisligi bo'yicha professional kadrlar tayyorlashga mustaqillik yillarida katta e'tibor berildi.

O'zbekistonda 2003 yildan boshlab sosial ish xodimlarini tayyorlashga kirishildi. Ayniqsa, sosial ish xodimlarini tayyorlashni oliy ta'lim tizimiga kiritilganligi diqqatga sazovordir¹.

Kezi kelganda quyidagi holatni alohida ta'kidlash joizdir: har qanday jamiyatning rivojlanish darajasi ko'proq sosial sohaning rivojlanishiga bog'liq.

¹ Ф.Х.Набиев. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й.

Ijtimoiy soha va xizmat qanchalik rivojlangan bo'lsa, jamiyatning rivojlanishi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish ko'p omillarga, ayniqsa, shu sohada faoliyat yuritadigan xodimlarning bilimi va mahoratiga, ularning professional qobiliyatini rivojlanti-rishga, lo'nda qilib aytganda bu sohadagi kadrlarni sifat tarkibini vujudga keltirishga bog'liqdir.

Ijtimoiy soha bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlar davlatni ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda katta rol o'ynaydilar. Ayniqsa, ular davlat bilan aholini zaif qismi o'rtasida o'ziga xos vositachilik rolini o'ynaydilar.

Bu soha xodimlari o'zlarini bag'rikengliklari, inson-parvarligi, rahmdilligi bilan boshqa xodimlardan ajralib turishlari zarur. Ular eng avvalo har bir individ, shaxsga insoniylik mezonlari bilan yondasha olishi, ulardagi yaxshi, kuchli tomonlarni ajrata olishi va uni rag'batlantirish qobiliyatiga ega bo'lishlari talab etiladi. Ijtimoiy ish sohasining muhim tamoyillaridan biri odamda uchraydigan zaif, nuqsonli tomoniga emas, balki undagi kuchli tomonni o'rganib uni yanada mustahkamlashga yordamlashish, hatto rag'batlan-tirilishiga alohida urg'u berish talab etiladi. Hatto, qamoqxonada o'tirgan jinoyatchiga ham insoniylik mezonlari asosida qaray olishlari va ularga imkoniyat darajasida yordam berishga harakat qilmoqlari zarur.

Ijtimoiy soha xodimi hayotda odamlarning o'zaro munosabatida uchrab turadigan ta'na qilish, tamg'a bosish (masalan, ko'rsan, karsan, shalsan, tentaksan, fohishasan, o'g'risan, aldanchisan, jinoyatchisan va h.k.) kabilardan ehtiyot bo'lishga, undan xolos bo'lishga da'vat etadi. Aksincha, zaif, nuqsonli, imkoniyati cheklangan odamlarning yaxshi tomonlariga tayanib ish olib borish zarur. Bu guruh odamlarni jamiyatning to'laqonli fuqarosi ekanligini har doim uqtirish, ularning ko'nglini ko'tarish zarur.

Yomonni yomon, nuqsonlini nuqsonli, deb kamsitishga yo'l qo'yish aslida tarbiyasizlikning mahsulidir. Bu xil stereotip illatdan ham xalos bo'lish uchun kurashishimiz kerak. Bu ham tarbiyaning muhim yo'nalishidir. Tarbiyaning bu yo'nalishini har tomonlama rivojlantirishimiz juda zarur.

Ijtimoiy ish xodimlari aholining zaif, nochor, nuqsonli guruhiga mehribonlik, rahmdillik nuqtai-nazardan yondashish, dardi-xasratiga quloq tuta bilish, talablariga sabr-toqatli bo'lish, muloqotda nazokat va odob ko'rsatish, muammosini yengillatishga ko'maklashish, shu bilan birga unga ko'rsatilayotgan xayriya yordamining psixologik tomonlariga e'tiborli bo'lish, shaxsiga, sha'niga tegmaslikka, qadr-qimmatini pastga urilishiga yo'l qo'ymaslikka xarakat qilish lozim. Bu guruh odamlarga sovuqqonlik, beg'amlik, toshbag'irlik ijtimoiy soha xizmatchilari uchun yot bo'lmog'i zarur.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy ish sohasi xodimi va xizmatchisining Axloq kodeksi ishlab chiqilgan. Unda bu guruh odamlarga oliy qadriyat sifatida qarash tamoyili mavjud bo'lib, unga amal qilish talab etiladi. Bu ahloqiy qoida va tamoyil-larda ijtimoiy ish sohasi xodim va xizmatchilari o'z-galar manfaatini o'z manfaati bilan uyg'unlashtira oladigan fazilat-ga ega bo'lish, zarurat tug'ilganda ularning manfaatini ustun qo'ya biladigan sifatlarga ega bo'lish ham talab etiladi.

Har bir odam noyob ijtimoiy mavjudotdir. Shuning uchun har bir odamga yuksak axloqiy pozisiyada yondashish lozim. Barcha odamlar jumladan, imkoniyati cheklangan guruh ham o'z ehtiyojlarini qondirish huquqiga egadir.

Ijtimoiy ish sohasida:

- inson qadr-qimmatini ulug'lash va unga eng yuksak qadriyat sifatida qarash;
- ularga nisbatan ijtimoiy adolat talablari asosida faoliyat ko'rsatish;
- insonparvarlik xizmatiga muqaddas burch sifatida qarash;
- ishda mas'uliyat va javobgarlik tuyg'usi kuchli bo'lishi;
- ijtimoiy sohaning sirlaridan yaxshi xabardor bo'lishni talab etiladi.

Bu talablarga rioya qilish bilan birga ijtimoiy soha xodimi o'zida «o'zgalar manfaati mening manfaatimdan muhim-roqdir», degan g'oyaga amal qilsa yanada yaxshi bo'ladi. Albatta, birinchi qarashda bu g'oyani tushunish va qabul qilish qiyinroq ko'rinadi. Chunki har bir inson ko'pchilik manfaati bilan birga ko'proq o'z manfaatini ham o'ylaydi. Bu tabiiy hol albatta. Nima uchun zarurat tug'ilganda o'zgalar manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishi kerak? Buni anglash,

tushunish va uni namoyon etish uchun xodimda katta insoniylik tabiati, xarakteri bo'lishni talab etadi. Aslida inson bu sifatga qodirdir.

Odam ijtimoiy nuqtai-nazardan «Men»ini «Biz» bilan uyg'unlashtira oladigan aqlli zot, u shaxs sifatida o'zgalar bilan doimo aloqa va munosabatdadir. «O'zga»lar, ya'ni boshqa barcha odamlar ham oliy qadriyatdir. Xalqimizning mazmunli gapi bor: har tun ko'rsang qadr bil, har kim ko'rsang Xizr bil! Ana shu o'zaro hayotiy mavjudlikni anglash hayotning ma'no-mazmunini tashkil qiladi. Chunki biologik nuqtai nazardan o'zgalarni saqlab qolish hayot mazmunini tashkil qiladi.

Demak, o'zgalar manfaatiga ham xizmat qilish insoniylik burchidir. Albatta bu masalada hamma ham bir xil darajada tarbiyalangan deb bo'lmaydi. Shuning uchun bu savob g'oyani hamma bir xil darajada qabul qila olmasligi mumkin. Buning uchun oila, maktabda yoshlarga ana shu sifatlarni singdirib bormoq zarur.

Bu mavzuga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, «men» va o'zgalar manfaatini uyg'unlashtirishning ma'nosi aslida o'zaro insoniy-likni saqlash, mustaqkamlash va uni oqilona davom ettirishni anglatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy sohaga oid axloqiy tamoyillar faqat shu soha xodimlari uchun emas, balki odamlar bilan doimo o'zaro munosabatda bo'ladigan barcha uchun, ayniqsa, shifokorlar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, savdo, tijorat bilan shug'ullanuv-chilar, boshqaruv sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar, mahalla tizimida xizmat qilayotganlar, ijtimoiy ta'minot, mahalla jamg'armalari xodimlari uchun ham juda zarurdir. Chunki ular aholining imkoniyati cheklangan nafaqaxo'rlar, nogironlar bilan ko'proq uchrashadilar va ishlaydilar. Yuqorida qayd qilingan axloqiy normalarni bilish va unga amal qilishsa aholining yordamga muhtoj qismi o'zini kamsitilmayotganligi bilan quvonadi.

Mamlakatimizda aholini yordamga muhtoj, imkoniyatlari cheklangan qismiga yordam ko'rsatishni professional darajaga ko'tarishda hokimiyat hamda ta'lim muassasalari o'zaro hamkor-lik qilishni yanada kuchaytirishi lozim¹.

Ijtimoiy ishda jamoa bilan ishlashni yo'lga qo'yishda mahalliy o'zini-o'zini boshqarish katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham hukumatimiz ijtimoiy himoya

¹ Ф.Х.Набиев. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й.

tizimini mahallalarga yukladi. Chunki mahalla xalqqa yaqin bo'lgan ijtimoiy institutdir.

O'z oilasining iqtisodiy ahvoriga baho berishni yanada tahlil qilish uning O'zbekistonliklarning oilaviy ahvoriga bogliqligini ko'rsatdi. Jumladan, ajralgan va bevalarning 23,4 foizi, uylanganlar/turmushga chiqqanlarning 36,9 foizi va bo'ydoqlar-turmushga chiqmaganlarning 45,9 foizi o'z oilasining iqtisodiy ahvolini yaxshi deb baholaydi. Birinchidan, uylangan erkaklar va turmushga chiqqan ayollarning oila byudjeti daromadlarning bir necha manbalaridan shakllanishi mumkin. Bu moddiy farovonlikka hamda ajralganlar va bevalarga taqqoslaganda oilaviy ahvolga baho berishga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, o'z oilasiga ega bo'lmagan erkaklar va ayollarning sarf-xarajatlari cheklovlarga, masalan, oila byudjetida xarajatlarning muhim moddalarini tashkil etadigan o'kish, davolanish, bolalarning dam olishi bilan bog'liq bo'lmaydi.

Shunday qilib, o'zbekistonliklar o'zlarining moddiy ahvolini koniqlik deb baholaydilar. Biroq, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi ko'rsatkichlari insonning ma'lumoti darajasiga va oilaviy ahvoriga, uning muayyan ijtimoiy guruxga mansubligiga bogliq bo'ladi.

Oilaning tuzilishi: tarkibi, bolalar soni, reproduktiv xulk-atvor. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida oila ijtimoiy institut sifatida har xil o'zgarishlarga duchor qilinadi va ushbu tendensiya ko'plab mamlakatlar uchun xosdir¹.

Oila instituti rivojlanishining tarixiy aniqligi shundaki, oila jamiyatning bevosita va bilvosita ta'siri ostida bo'ladi, davr bilan o'zgaradi, almashinib turadigan ijtimoiy munosabatlarga moslashadi.

S.I.Golod oila - bu ochiq evolyusiyalanuvchi tizim deb hisoblaydi, chunki o'zaro aloqador tarkibiy qismlarni muayyan tarzda o'z ichiga oladi va yaxlitlik singari o'zi ham ayni vaqtda boshqa ijtimoiy obyektlar bilan o'zaro hamkorlik

¹ Шевченко И.О., Шевченко П.В. Большая семья — какая она? // Социологические исследования. -М. 2005, № 1.

qiladi². Shu va shunga o'xshash boshka fikrlar ijtimoiy institut sifatida oilaning o'zgarishi muammosi to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi.

Oila o'zgarishi doimiy ravishdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, kasbiy munosabatlarda raqobatning o'sishi, hayot sur'atining ortishi sharoitlarida uning individual qadriyatlari o'sishi fonida yuz beradi.

Oila tuzilmasining o'zgarishi oilaviy tuzilmalarning yangi, mukobil turlari paydo bo'lishi transformasiyaning yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. «Oila tuzilmasi» tushunchasi oila a'zolari sonini va farzandlar sonini o'z ichiga oladi.

Oila a'zolari sonini o'rganishda oilalarning quyidagi tiplari ajratib ko'rsatiladi:

- uch avlodli oilalar, ota-onalar va bolalardan tashkari erkak va ayol tomonidan buvilar va bobolarni ham o'z ichiga oladi;

- bolalari yoki ota-onalardan biri bo'lmagan, to'liq bo'lmagan oilalar.

Ma'lumki, G'arb mamlakatlarida uch avlodli oilalar yoyilmagan, Uzbekiston jamiyati uchun esa bunday oilaviy tuzilma eng xarakterli hisoblanadi.

Oiladagi bolalar soniga qarab kam bolali (1-2 bola), o'rtacha bolali (3-4 bola), ko'p bolali (4 boladan ortiq) oilalar ajratib ko'rsatiladi.

Zamonaviy jamiyat uchun to'liq bo'lmagan oilalar soni o'sishi xarakterlidir. Bundan to'liq bo'lmagan oilalarning uch tipi ajratib ko'rsatiladi:

- ota-onalardan biri ketib kolgan yoki vafot etgan, ikkinchisi kayta nikohga kirmagan;

- yolgiz kishi bolani rasman farzandlikka olgan;

- turmushga chikmagan ayol nikohsiz tutilgan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalaydi¹.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida aralash tip oilaning yana bir tipi hisoblanadi. Adabiyotlarda aralash oilalarning quyidagi tiplari ajratib ko'rsatiladi:

- bolali ayol o'z farzandlari bo'lmagan erkaklarga turmushga chiqadi;

1.Голод С.И. Стабильность семьи: социологические и демографические аспекты. — М.: Наука, 1984.

2. Филиппова Л.Б. Психологические основы работы с семьей. -Ярославль, 2003.

- farzandi bo'lmagan ayol o'z bolalari bo'lgan erkakka turmushga chiqadi;
- oldingi nikohlaridan bolalari bo'lgan erkak va ayol nikohdan o'tadi.

Nikoh - oila o'zaro munosabatlarining muqobil shakllari paydo bo'lishi oila tuzilmasi

transformasiyasining muhim xususiyati hisoblanadi.

Nikoh - oila o'zaro munosabatlarining muqobil shakllari paydo bo'lishi oila tuzilmasi

transformasiyasining muhim xususiyati hisoblanadi. Ularga quyidagilar tegishlidir: yolg'izlik; ro'yxatdan o'tmay birga yashash («fuqarolik nikohi»); ongli ravishda farzand ko'rmasdan nikoxda yashash, sheriklarning shaxsiy va er-xotinlik erkinligini nazarda tutadigan ochiq nikoh, nikohsiz seksual munosabatlar va intim do'stlik, yaramas ish tutish (nikoxdagi sheriklarni almashtirishni maqbul bilish), jamoaviy oila yoki guruhli nikoh.

Nikohning muqobil shakllari aholining ozchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bolalarning manfaatlari, ularni an'anaviy oilada tarbiyalash buning asosiy sababi hisoblanadi.

Oila a'zolari soni jihatidan zamonaviy Uzbekistondagi zamonaviy oilaning tarkibi qanday?

Oilada birga yashayotgan oila a'zolarining soni O'zbekistonda zamonaviy oila xususiyatlarini bilib olishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. 20-rasmda o'zbekistonliklar oilasidagi kishilar soni to'grisidagi ma'lumotlar foiz nisbatida ko'rsatilgan.

uchtagacha (17,9%), oltitagacha (17,3%) bo'lgan oilalar tez-tez uchraydi. Katta oilalar (7 va undan ko'p kishi) olingan ma'lumotlarga muvofiq kamdan-kam uchraydi (yetti kishi-8,0%, sakkiz kishi - 4,7%, to'qqiz kishi - 1,7%, o'n kishi va undan ko'p kishi - 3,0%). Bir tomondan, o'rtacha oilalar ustunlik qilish holati (4-6 kishi) tug'ilishning kamayishi bilan, ikkinchi tomondan, bugungi kunda yosh oilalar uchun xos bo'lgan ota-onalardan alohida yashashga intilish bilan izohlanadi.

Eng muhimi imkoniyati cheklangan odamlarga g'amxo'rlik qilishni oqilona yo'lga qo'yish orqali Inson degan ulug' nomni baland ko'tarishiga ko'maklashgan

bo'lamiz. Masalan, Britaniyada ichki ishlar vaziri ko'zi ojiz nogiron odam, uni o'rgatilgan it yetaklaydi. Yoki mehnat va ijtimoiy ishlar vaziri nogiron bo'lib, aravachada yuradi. Gap bu yerda odamni nuqsoniga emas, balki aql idroki, uddaburonligiga qarab yuksak lavozimlarga ko'taradi. Nogiron odamni bunday lavozimda ishlashiga imkoniyat yaratish ijtimoiy adolatning amaliy namunasidir. Ijtimoiy ishning ijtimoiy institut sifatida rivojlanishi mustaqil soha sifatida hozirgi zamonning muhim yo'nalishidir. Ijtimoiy diagnostika va profilaktika, ijtimoiy adaptasiya, ijtimoiy terapiya va ijtimoiy reabilitasiya bu sohaning tarkibiy qismlaridir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni samarali qilishda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga, yordamga muhtojlarning og'irini yengil qilishga ko'maklashadigan ijtimoiy ish tizimining o'rni beqiyos kattadir.

II. 2. IJTIMOIIY ISHNING OILAGA YO'NALTIRILGANLIGI.

Hozirgi kunda sovetlardan keyingi makonda, jumladan, O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida oila masalasi keskinlashib bormoqda. Millionlab oilalarda sosial funksiyalarni – reproduktiv, ekzistensial va sosializasiya funksiyalarini amalga oshirish sharoiti yomonlashdi. Oila muammosi nafaqat mutaxassislar uchun, balki hamma uchun ma'lum bo'lib qoldi.

Bu muammolar – oiladagi ajaralishlar, nikohgacha bo'lgan jinsiy aloqalar, nikohsiz tug'ilganlar, tug'ilish jarayonining tartibsizligi. Bolalar o'rtasida jinoyatchilikning o'sishi, oila a'zolari o'rtasida axloqiy javobgarlikning pasayishi. Bu to'laqonli bo'lmagan oilalar, yolg'iz oilalar, lesbiyanka va kvazioilalargey nikohsiz yashaganlar, soxta nikohlar. Bu oila deviasiyasini o'sishi, ya'ni alkogol va narkotik iste'mol qilish, oiladagi zo'ravonlik hatto inestuoaz zo'ravonlik.

Bu muammolarning sababini va uni oila, jamiyat hayoti uchun oqibatlarini tushuntirishda hozirgi kunda sosial iqtisodiy muammolar bilan bog'lab gapirishadi. Bu unchalik to'g'i emas, chunki uning ildizlari ancha uzoqqa borib taqaladi.

Bu muammolarning ildizi XVII-XX asrlarda dunyoda industrializasiyaning boshlanishi bilan bog'liq. Ko'p bolali oilaning yemirilishi uzoq davom etgan jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda sosial-iqtisodiy muammolar oila inqiro-zini yuzaga chiqardi, xolos. Oiladagi negativ jarayonlar global xarakterga ega, ya'ni mehnat taqsimoti va yollanma mehnatga asoslangan yirik mashinali ishlab chiqarishni industrial davridan o'tgan hamma xalqlarda yoki mamlakatlarda oila inqirozi namoyon bo'lmoqda.

Oiladagi noma'qul tendensiyalarning sababi hayot moddiy sharoitining o'zgarishida emas, balki hozirgi zamon industrial jamiyatlardagi hayot tarzini o'zgarishi bilan bog'liqdir. Chunki oila inqirozi nafaqat qoloq mamlakatlarda, balki rivojlangan Yevropa va AQShda ham namoyon bo'lmoqda.

Sobiq sovet makonidagi mamlakatlarni tarixiy rivojlanish yo'lidagi o'ziga xoslik shundaki, bu hudud socialistik g'oyani tez va zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirish maydoniga aylangan edi. Bu g'oyani totalitar ruhda ekanligi umuman sosial

muammolarni jumladan, oila va demografik muammolarning xarakterini belgilab berdi.

Oiladagi inqirozli tendensiyalar tasodif emas yoki to'g'ri yo'ldan og'ish emas, balki fundamental jarayonlarning yaqqol ko'zga tashlanadigan keskinlashuvidan iborat. Shuning uchun sosial-iqtisodiy tushkunlik tugagandan so'ng oila hayotini normal inqirozli rivojlanishiga yo'l ochiladi. Buning uchun oilaga jamiyat tomonidan maqsadli ta'sir o'tkazish kerak.

Davlatni boshqaruvchilik roli saqlanib qolgan holda ham raqobat jarayoni va bozor munosabatlariga asoslangan sosial-iqtisodiy rivojlanish o'z o'zidan oilada keskin o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu oila o'zgarishlarini hech kim inkor qilmaydi, lekin har kim unga har xil baho berayapti.

Oiladagi o'zgarishlar to'g'risidagi nuqtai nazarlarni ikki-ga bo'lish mumkin, ya'ni oila muammosini o'rganadigan va uni amaliy hal qilishni ishlab chiqaradigan ikkita paradigma mavjud. Bulardan biri modernizasiya paradigmasi. Ikkinchisi oila inqirozi paradigmasi.

Birinchi paradigma doirasida – oiladagi pozitiv va negativ o'zgarishlar an'anaviy oila turi o'rniga zamonaviy oila turi kelishi sifatida, oila va aholi ishlab chiqarishni modernizasiyalash jarayoni sifatida tushuniladi va talqin qilinadi. Oilaning modernizasiyalashuvini jamiyatni modernizasiyalashuvining qismi sifatida qaraladi. Bu paradigma doirasida gap faqat vaqtinchalik va lokal nomunosibliklar, hamda muammoli vaziyatlar to'g'risida borishi mumkin. Bunday muammoli vaziyatlar o'tkinchi va yuzaki omillarning ta'siri natijasi, deb qaralgan. Ya'ni modernizasiya jarayonining tezli-gini bir xil bo'lmaganligini aks ettiradigan omillar ta'siri natijasi, deb qaralgan.

Sobiq sovet davridagi oila o'zgarishini va aholini qayta ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish oila yangi inqirozning sababi, jamiyatda yangi muammolarga to'qnash kelganligida ekanligini ko'rsatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, «oilaning yangi inqirozi», oiladagi o'zgarishlar, sovet jamiyati hayotidagi o'zgarishlardan orqada qolganligi bilan bog'liq.

Chunki iqtisodiy va sosial yangilanish yo'li, ya'ni indust-rializasiya, urbanizasiya, sekulyarizasiya, emansipasiya yo'li sovet jamiyati hayotini tez o'zgarishini keltirib chiqargan edi. Oiladagi o'zgarish bu o'zgarishdan ancha orqada qolgan edi.

Agar jamiyat oila jarayonlariga aralashib shunga munosib oila va demografik siyosat olib borsa oila inqirozini pasaytirishi mumkin bo'ladi.

Oilani sosial institut sifatida barbod bo'lishi to'g'risi-dagi paradigma esa, oiladagi o'zgarishlarni vaqtinchalik, tasodifiy, deb emas, balki industrial-bozor sivilizasiyasi-ning tub mohiyatli xususiyatlari keltirib chiqargan oila global inqirozini konkret ifodalanishi, deb qaraydi.

Oila inqirozi paradigmasiga asoslangan izlanuvchi oiladagi inqirozni hozirgi zamon global muammosi (ekologik muammo kabi) deb qaraydi va bu inqiroz oila hayoti tarzi qadriyatlarini ham qamrab oladi.

Oila inqirozi konsepsiyasi e'tiborni evolyusion rivojlanish yo'lidagi og'ishlarga emas, balki bozor industrial munosabatlarini sosial illatlarga qaratadi.

Oiladagi inqirozning mohiyatini quyidagi sosial madaniy jarayonlar ya'ni, oilani sosial axloqiy regulyasiyasini zaiflashuvi, madaniy ramz va namunalarni transformasiyasi, nikoh, bolali oila, oila avlodlarining birligi qadriyatlarini pasayishi ko'rsatib turibdi. Shuning uchun oila siyosati mana shu sosial madaniy jarayonlarni keltirib chiqargan sabablarni topib uni bartaraf qilishga qaratilishi lozim.

Oila inqirozi paradigmasi asosida oilani o'rganadiganlar kamchilikni tashkil qiladilar. Chunki uzoq yillar davomida familistika va demografiya marksizm-leninizm mafkurasi doirasida o'rganilgan. Bu mafkuraga asosan oilani o'rganadigan hamma fanlarda shaxs va jamiyat manfaati bir deb hisoblay-digan yondashuv hukmronlik qilgan.

Bir tomonda oila va shaxs, ikkinchi tomonda jamiyat (davlat) manfaatlarini mutanosib, deb hisoblash modernizasiya paradigmasini muhim xususiyati bo'lib hisoblanadi. Oilani rivojlantirish va aholini qayta ishlab chiqarish sohasida ham ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar uyg'unligi ta'kidlangan. Sosializm davrida bolalarga

va oilalarga oliy qadriyat sifatida qarash belgilangan va oiladagi salbiy o'zgarishlarni vaqtinchalik holatlar natijasi deb qaralgan.

Sovet tuzumining inqiroziga, oiladagi o'zgarishlarga ana shunday yondashuv, ya'ni modernizatsiya paradigmasi asosida yonda-shuv hukmronlik qilgan. Oxirgi vaqtlarda oiladagi muammo-larga oila inqirozi paradigmasi asosida yondashuv boshlandi, ya'ni, oiladagi o'zgarishlar oilani global inqirozi kontekstida o'rganila boshlandi.

Bu ikkita paradigma o'rtasidagi kurash davom etmoqda. Oila modernizatsiyasi paradigmasiga asoslangan socialistik tizim tugagan bo'lsa ham paradigma saqlanib qoldi. Bu paradigmani saqlanib qolganligi samarali oila siyosatini olib borishni qiyinlashtirmoqda.

Oila siyosatining zarurligi oila strukturasi va funksiya-sidagi o'zgarishlarning nobop oqibatlari bilan belgilanadi. Bu o'zgarishlar tarixiy rivojlanishni spontan yo'li, ya'ni o'z-o'zicha rivojlanish yo'li bilan, industrializatsiya jarayoni, urbanizatsiya jarayoni va u bilan bog'liq boshqa jarayonlar natijasida kelib chiqqan bo'lib, ularning majmui oilani ijtimoiy insti-tut sifatidagi inqirozini xarakterlaydi.

O'z xarakteriga ko'ra global bo'lgan va o'z oqibatlariga ko'ra ekologik inqirozga teng bo'lgan bu jarayonlar bizni mamlakati-mizga o'ziga xos xarakterga ega. Bu o'ziga xoslik sovet va postsovet davri xususiyatlari bilan belgilanadi.

Birinchi o'ziga xoslik shundaki oila transformatsiyasini tabiiy jarayoni oilani sosial funksiyalarini boshqa institut-larga o'tish jarayoni, oila a'zolarini bozor iqtisodiyotiga tortish jarayoni totalitar davlat tomonidan majburan tezlash-tirilgan va rag'batlantirilgan (xalq xo'jaligini industrlash-tirish va kollektivlashtirish) va uni muddati sun'iy ravishda qisqartirilganligida. Shu sababli normal yo'ldan rivojlangan mamlakatlardan farq qilib bizda uning oqibatlari vayronkor bo'ldi.

Davlatni gipertrofiyalashgan roli ham shu bilan bog'liq edi. Davlatning bunday roli faqat oiladagi o'zgarish jarayonla-rini tezlashtirishda emas, balki oila funksiyasini sosial ins-titutga emas davlat organlariga o'tishida ham namoyon bo'ldi. Superetatizatsiya, ya'ni butun sosial hayotni davlatlashtirish oila inqirozini tezlashtirdi, oila va oila qadriyatlariga vayronkorona ta'sir qildi.

Oila hayotiga davlat qanday aralashganidan qat'iy nazar (20-30 yy. zo'ravonlarcha aralashgan, urushdan keyingi yillarda va turg'unlik yillarida yumshoqroq) u inqirozni kuchaytiradi.

Oila ijtimoiy institut sifatida vayron bo'la boshlagan edi va 60 yillarning o'rtalaridan boshlab o'z funksiyasini eng avvalo reproduktiv funksiyasini bajarmay qo'ygan edi.

Bizni tarixiy rivojlanishimizning ikkinchi o'ziga xosligi hozirgi kunlarga ya'ni, postsovet davriga taalluqli. Bu mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ba'zi xususiyatlari iqtisodiy, sosial va siyosiy o'zgarishlarni xususiyatlari bilan bog'liq. Gap shundaki islohotchilar bu o'zga-rishlar jarayonida oila manfaatini yetarli darajada e'tiborga olmaydilar.

O'zgarishlar jarayonida qabul qilinayotgan qarorlar obyektiga oilaga yoki biror bir sosial jamoaga taalluqli bo'lgan individ sifatida emas, balki alohida (izolyasiyalashgan) indi-vid sifatida qaramoqda. Oqibatda oiladagi o'z-o'ziga o'zgarish jarayoni, oila qadriyatlarini devalvasiyasi (qadrsizlanish) davom etmoqda va tezlashmoqda.

Tezlashuvning sababi oiladagi o'zgarishlar mamlakatdagi sosial-iqtisodiy va siyosiy inqiroz bilan bog'liq, deb hisoblanmoqda. Natijada oila muammolari jamoatchilik tomonidan iqtisodiy islohotlarning oqibati, inqiroz oqibati sifatida qaralmoqda. Oiladagi o'zgarishlar oila hayot darajasining pasayishi bilan bog'liq, deb qaralmoqda. Ayniqsa ko'p bolali oilalar va to'laqonli bo'lmagan oilalar hayot darajasi pasayishi bilan bog'lanmoqda¹.

Bu tarixiy rivojlanish o'ziga xosligi oila siyosatini shunday tushunishni keltirib chiqardiki, bu oilani qashshoqliq-dan himoya qiladigan, inflyasiya natijasida farovonlikni pasayi-shidan himoya qiladigan davlat tadbirlari sifatida tushunishni keltirib chiqaradi.

Oilalarga moddiy yordam berish ham shundan kelib chiqqan. Bular oilaga nisbatan qisqa muddatli, cheklangan tadbirlar bo'lib hisoblanadi. Vaholanki uzoq muddatli oila siyosati ishlab chiqilishi kerak.

¹ Ф.Х.Набиев. Ижтимоий сиёсат. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд 2007 й.

Oila siyosati - uzoq tarixiy jarayonda yo'qolib borayotgan oila hayot tarzini, oilani qayta tiklashga qaratilgan davlat va jamiyat faoliyatidir. Oilaga xos bo'lgan sosial funksiyalarni qaytarishga qaratilgan faoliyatdir. Sosiologik tilda aytganda, oilani sosial institut sifatida mustahkamlashga qaratilgan faoliyatdir.

Bu siyosat faqat oilaga yo'naltirilgan siyosat emas. Aslida oila siyosati-oilaga qarshi bo'lgan zamonaviy sivilizasiyani o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

Faqat jamiyatni oila manfaati nuqtai nazaridan islohot qilish oilani inqrozdand olib chiqadi, uni sosial funksiyalarini qayta tiklaydi.

Oila siyosatini fundamental va uzoq muddatli vazifalari bilan birga qisqa muddatli maqsadlari, u yoki bu davrga taalluqli dolzarb vazifalari bo'lishi mumkin. Oilani sosial institut sifatida mustahkamlash alohida oilalarga hayotiy muammolarini hal qilishga sharoit yaratadi.

Oila siyosatining asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Suverenitetlik tamoyili (davlatdan mustaqillik).
2. Ijtimoiy shartnoma tamoyili (davlat bilan oila o'rtasida).
3. Oila hayot tarzini tanlash erkinligi tamoyili (oila va jamiyat manfaati uyg'unligi doirasida).
4. Maqsadlarni yagonalik tamoyili (butun mamlakatga taalluqli).
5. Sosial ishtirok tamoyili (siyosatni amalga oshirishda ishtiroki).

Oila siyosatining strategik, uzoq muddatli maqsadi oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlashdan iborat. Bu maqsad oila hayot tarzini mustahkamlashda ifodalanadi va e'tiborni individga emas, uni oiladagi hayotiga va oilaga qaratilishini talab qiladi. Hozirgi kunda butun dunyoda oiladagi o'zga-rishlar fragmentar oilalar va oilasiz yashash shakllari jamiyat tomonidan tan olinishi o'sib bormoqda. Shuning uchun strategik maqsad bo'lgan oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlash jamiyat va davlat tomonidan bolali oilalarni, bir necha avloddan iborat bo'lgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Asosan 3-4 bolali to'liq oilalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan asosiy oila shakli deb hisoblanadi.

O'zbekistonliklarning ma'lumoti darajasiga qarab oiladagi bolalar soni normasini tahlil qilish ham oiladagi bolalar va ular soni o'rtasidagi jiddiy

tafovutlarni aniqlamadi. Biroq to'lik bo'lmagan o'rta (5,3%), oliy ma'lumotli (10,4%) kishilarga qaraganda o'rta (12,4%), o'rta maxsus (15,0%) ma'lumotlilik bir bolali oilalar uchun xos ekanligini ta'kidlash lozim.

Respublika mintaqalari bo'yicha olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili oilada bolalar soni har xil mintaqalarda farq qilishini ko'rsatdi. Jumladan, Buxoro (28,9%) va Toshkent (24,3%) viloyatlari aholisi boshqa mintaqalar aholisiga qaraganda ko'proq oilalarida farzandlar yo'kligini ko'rsatdi. Toshkent shahrida (25,7%), Andijon (21,0%) va Jizzax (19,4%) viloyatlarida o'zbekistonliklar uchun oilada bir bola bo'lishi ko'proq xosdir. Aksincha, Samarqand (4 bola -22,6%, 6 bola - 10,8%)), Sirdaryo (4 bola - 21,7%), Namangan (6 bola 11,3%) viloyatlari aholisi uchun ko'p bolalik ko'proq xarakterlidir.

Umuman respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan anik farkanib turadigan rakamlar ajratib ko'rsatilgan.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chikib, ikki yoki uch bolali oila zamonaviy Uzbekiston uchun xarakterli ekanligini ta'kidlash mumkin. O'zbekistonliklarning jinsi, ma'lumoti darajasi, yoshi, o'z oilasining iktisodiy ahvoriga baho berishi oilada bolalarning soni teng bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Oiladagi bolalar soni tahlili bizni so'zsiz «reproduktiv xulq-atvor» tushunchasini ko'rib chiqishga olib keladi. Ushbu tushuncha bilan bolalarning muayyan soni tug'ilishiga yoki tugishni rad etishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar tizimi belgilanadi.²⁴

Oiladagi bolalar soni, ularni tug'ish muddatlari, onaning yoshi, bola tug'ilishida oilaning nikohi ahvoli u yoki bu navbatlilikda reproduktiv xulq-atvorning muhim demografik tavsiflari hisoblanadi.

Bolalarga bo'lgan ehtiyoj reproduktiv xulq-atvorinng asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Insonning bu xususiyati bolalar va ularning bir nafar emasligi u o'z shaxsini ro'yobga chiqarishida qiyinchiliklarga duch kelishida

namoyen bo'ladi. Oilada kancha bola bo'lishi to'g'risidagi yakka tartibdagi qaror omillarning ikki guruhi - ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi¹.

Oilaning moliyaviy ahvoli va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, ko'p bolalikni mustahkamlaydigan va farzandsizlikning oldini oladigan normalar va sanksiyalar (ham davlat darajasida, ham yaqin atrofdagilar darajasida), barqaror an'analar va urf-odatlariga aylangan bolalar soni normasi tashqi omillarga tegishli bo'lishi mumkin. Individning motivasiyasini o'z ichiga olgan reproduktiv aniq fikrini aks ettiradigan muayyan motivlar ichki omillar hisoblanadi.

Reproduktiv anik fikr (ustanovka) - insonning bolalarning muayyan sonini amalga oshirishga to'liq tayyorligini ifodalaydigan ongning o'ziga xos holati. Uch asosiy ko'rsatkich: o'rtacha ideal, bolalarning istalgan va kutilayotgan (rejalashtiriladigan) soni insonning reproduktiv anik fikri asosiy tashqi indikatorlari bo'lib xizmat qiladi. Reproduktiv motivlar o'zida bolalarning muayyan soni tug'ilishi orqali individni har xil maqsadlarga erishishga undaydigan shaxsning holatini ifodalaydi¹. Reproduktiv motiv inson bola tug'ilishi bilan bog'laydigan shaxsiy mazmuni aks ettiradi. Motivlar orasida iqtisodiy, ijtimoiy, psixoloik motivlar ajralib turadi. Jumladan, iqtisodiy motivlar moddiy foyda olish, o'zining iqtisodiy maqomini oshirish maqsadida bolalarning muayyan soni bo'lishiga undaydi. Ijtimoiy motivlar bolalar sonining ijtimoiy-madaniy, egnik va diniy normalari doirasida bolalar soni u yoki bu miqdorda bo'lishini rag'batlantiradi. Psixologik motivlar, eng avvalo, bolalarning muayyan soni tug'ilishi orkali shaxsning o'zligini ro'yobga chiqarishi, uning teran ichki maqsadlarini amalga oshirish imkoniyati bilan bog'liqdir.

U yoki bu mamlakatdagi demografik vaziyatni tahlil qilishda ko'pincha demografik paradokslardan biriga: oiladagi bolalarning real soni subyektiv jihatdan maqbul yoki istalgan son deb hisoblanadigan miqdorga mos kelmasligiga e'tibor qaratiladi. To'rt bola (32,3%), uch bola (26,3%) yoki ikki bola (24,5%) tanlanishi

¹ Баъзан бундай хулқ-атворни белгилаш учун «генератив» ёки «прокреатив» хулқ-атвор атамасидан фойдаланилади.

¹ Халкечев М.И. Рождаемость и репродуктивне установки молодежи Карачаево-Черкесии//Ж. Социологические исследования. 2005, №8.

kamayib borishi tartibida o'zbekistonliklar uchun bolalar sonining eng subyektiv ustunlik berishi hisoblanadi. Oilada birorta ham farzand bo'lmasligi, besh yoki undan ko'p bola bo'lishi, yoki «xudo qancha bersa, shuncha bo'lishi» haqidagi fikrni O'zbekiston fukarolari ochiq-oydin tasdiqlamadi. Olingan ma'lumotlar so'rov qatnashchilari ko'rsatgan oilada bolalarning real soniga qay bir darajada mos keladi. Bu demografik paradoks mavjud emasligini ko'rsatadi.

Qishloq aholisi uchun uch bola (37,6% -kishlok, 23,4% - shahar), shahar aholisi uchun esa - ikki bola (31,7% -shahar, 20,3%o -qishloq) oiladagi bolalarning eng maqbul soni hisoblanadi.

Shunday qilib, oilada ikkitadan to'rttagacha farzand bo'lishi, yoki boshqacha so'zlar bilan aytganda, umuman olganda jins, qay darajada ma'lumotliligi va moddiy holati singari ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lmagan o'rtacha nafar farzand bo'lgan oilaga nisbatan reproduktiv yo'nalish o'zbekistonliklarning ijtimoiy ongiga xosdir.

Oilada real va xohlangan farzandlar sonining mos kelmasligi demografik paradoks mavjudligining boshqa indikatori sanaladi. 23-rasmda so'rov ishtirokchilari bergan javoblarning tabaqalangan qatori keltirilgan.

So'rovda qatnashgan deyarli har to'rtinchi ishtirokchi allaqachon farzandli bo'lganligi bois boshqa farzand ko'rishni istamaydi. Tadqiqot qatnashchilari ikki farzandli bo'lishni (21,5%), uch farzandli bo'lishni (21,2%) yoki to'rt farzandli bo'lishni (19,1%o) xohlayettanligini ko'rsatdi. Bu ma'lumotlar oilada farzandlarning real va xohlangan soni o'rtasida demografik paradoks yo'kligidan dalolat beradi, chunki o'zbekistonliklar oilalarida farzandlarning real soni umuman olganda xohlab aytilgan songa mos keladi.

Yashash joyi u yoki bu miqdorda farzandli bo'lish istagiga ta'sir o'tkazadi. Jumladan, qishloqda yashovchilarga nisbatan shaharliklar ko'pincha ikkita farzandli bo'lishni xohlaydi (25,8%> va 19,0%).

U yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligiga qarab nechta farzandli bo'lish istagining tahlil qilinishi ko'p bolali oilani (oilada besh nafar bola) ko'prok dehqonlar (11,0%) va fermerlar (13,6%>), respublika bo'yicha o'rtacha 5,0%>, ikki

bolali oilani esa o'quvchilar va talabalar 36,3%, respublika bo'yicha o'rtacha 21,5% xohlashini ko'rsatadi.

Reproduktiv yo'nalishlardagi tafovut ma'lumot nuqtai nazaridan ayniqsa namunalidir. Ma'lumotliroq bo'lgan, ya'ni to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotli o'zbekistonliklarning 16,8 foizi, o'rta ma'lumotli o'zbekistonliklarning 15,9 foizi, o'rta maxsus ma'lumotli o'zbekistonliklarning 26,5 foizi, oliy ma'lumotli o'zbekistonliklarning 26,5 foizi ko'proq ikkita farzandli bo'lish istagini bildiradi. Ma'lumoti pastrok bo'lgan kishilar, ya'ni to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotlilarning 28,4 foizi, o'rta ma'lumotlilarning 20,7 foizi, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlarning 18,3 foizi, oliy ma'lumotlilarning 15,0 foizi to'rtta farzandli bo'lish istagini bildiradi. Birok olingan natijalar garchi ba'zi tendensiyani ko'rish imkonini bersa-da, muayyan miqdorda farzandli bo'lishga nisbatan shaxsiy xohishning ma'lumotlilik darajasiga bogliqligi haqida ochiqdan-ochiq aytish imkonini bermaydi.

Shunday qilib, o'zbekistonliklar oilada muayyan miqdorda farzandli bo'lish istagi ikki, uch yoki to'rt farzandli oilaga asoslanishini namoyish qildilar.

Tug'ishni tartibga solish reproduktiv hulq-atvorning muhim tarkibiy qismi sanaladi. U esa tug'ish o'sishining kamayishi muammolari va reproduktiv yo'nalishlarni shakllanirish muammolarini tahlil qilishda tobora alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Usib kelayotgan avlodda bolalarga yo'naltirilganlikni, farzand ko'rish va uni tarbiyalashga nisbatan faol-ijobiy, mas'ul va hissiyotli hamda kadr-qimmatli munosabatda bo'lishni shakllantirish pedagogika, psixologiya, sosiologiya singari turli fanlarning diqqat markazida bo'lishi kerak. Istalgan davlatning kelajagi tug'ilish darajasi va yangi avlodning paydo bo'lishiga bog'lik.

A.Vishnevskiy ikkita demografik jarayonni, ya'ni prokreasiya (farzandli bo'lish) va reproduksiyani (aholini qayta ko'paytirish) cheklashni taklif kildi. Uning fikricha, ushbu jarayonlarga muvofiq bolalarga ehtiyojning ikkita turini, ya'ni tug'ilishning muayyan soniga bog'liq prokreagiv (individual darajadagi ehtiyoj) hamda avlodlarni qayta ko'paytirishga yo'naltirilgan (ijtimoiy darajadagi ehtiyoj)

reiroduktiv turlarini ajratish mumkin. Bolalarga yo'naltirilganlikni shakllantirish individual va ijtimoiy, prokreativ va reproduktiv ehtiyojlarning muvofiqliligiga yo'naltirilishi kerak. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, o'sib kelayotgan avlodni oilaviy hayotga tayyorlash har bir kishining hayotida farzandlarning ahamiyati va ularga qadr-qimmat bilan munosabatda bo'lish haqida axborotni o'z ichiga olishi, ularning farzandlilik normalari haqidagi tasavvuriga ta'sir qilishi va o'zining bo'lg'usi oilasini rejalashtirishni o'rgatishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, oilada farzandning nechta bo'lishi ularning salomatligi va imkoniyatlariga qarab hamda bolaning sog'lom o'sishi uchun barcha zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlash sharti bilan ota-onalar tomonidan aniqlanishi kerak¹.

So'rovda qatnashgan o'zbekistonliklarning yarmidan ko'prog'i (59,8%) ular oilada farzandlar sonini rejalashtirishmayotganini, Uzbekiston fuqarolarining kamroq qismi (40,2%) o'z oilalarida farzandlar sonini rejalashtirishmayotganini ko'rsatdi. Bunda iqtisodiy holatga baho berish omilining o'zbekistonliklarning ushbu savolga ijobiy yoki salbiy javob tanlashiga ta'sir ko'rsatishidan tashqari turli ijtimoiy omillarga bog'liq alohida tafovutlar aniklanmadi.

Oilaning iqtisodiy holatiga yukorirok baho berish bilan o'z oilalarida farzandlar sonini rejalashtirmaydigan O'zbekiston fuqarolarining foizi ortib boradi. Respondentlarning 50,0 foizi oilaning iqtisodiy holatiga yomon baho bergan bo'lsa, ularning 65,6 foizi unga juda yaxshi deb baho bergan. Oilada farzandlar sonini rejalashtirish o'z oilasining moddiy holatini juda yomon deb baholagan o'zbekistonliklarda kuzatiladi. Jumladan, o'z oilalarining iqtisodiy holatini juda yaxshi deb hisoblaydigan o'zbekistonliklarning 34,4 foizi va o'z oilalarining iqtisodiy holatini juda yomon deb hisoblaydigan o'zbekistonliklarning 50,0 foizi o'z oilalarida farzandlar sonini rejalashtiradi.

Oilada farzandlar sonini rejalashtiruvchi o'zbekistonliklar oilalarida farzandlar sonini belgilab beruvchi sabablar va omillarning tabaqalashtirilgan qatorini yaqqol

¹ Каримов И.А. Соғлом авлодни тарбияламок - ҳар биримизнинг мукаддас бурчимиздир//Ўзбекистон Республикаси Президентининг матбуот хизмати.

ko'rish imkonini beradi. Oilaning iqtisodiy holati oilada farzandlar sonini rejalashtirishning asosiy sababi hisoblanadi (59,4%). Er-xotinlarning salomatligi va ularning dunyoqarashi, milliy va mahalliy urf-odatlarining o'ziga xosligi, oiladagi ruhiy muhit va diniy dunyoqarash keyingi o'rinda turadi. Bu farzandlarini oyoqqa turgazish, ular o'sishi uchun farzandlar sonini rejalashtiruvchilar orasida ustun bo'lishidan dalolat beradi. Bu esa ham oilaning iqtisodiy holati va ham er va xotinning salomatligi sifatida ifod&chandi. Bunda o'z oilalarining iqtisodiy holatini yomon (72,4%) va juda yomon (100,0%) deb baholagan (uni juda yaxshi deb baholaganlarning 59,1 foiziga va uni yaxshi deb baholaganlarning 56,3 foiziga nisbatan) shaharda yashovchi o'zbekistonlik erkaklar (ayollarning 56,5 foiziga nisbatan 62,2%, qishloqda yashovchilarning 55,4 foiziga nisbatan 66,5%) oilaning iqtisodiy holatiga ko'prok ahamiyat beradi.

Yuqorida ta'kidlanganlarni sarhisob kilishda o'zbekistonliklarning ko'pchiligi o'z oilalarida farzandlar sonini rejalashtirmasligini ko'ramiz, biroq uni rejalashtirishda Uzbekiston fukarolarining katta qismi o'z oilalarining iqtisodiy holati va er-xotinlarning salomatligiga yo'naltiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki bugungi murakkab globallashuv davrida insoniyat jamiyati oldida turgan global muammolar qatori oilaning global inqirozi ham va bu inqiroz natijasida yuzaga kelgan sosial muammolar ham ma'naviyat sohasida vujudga kelgan muammolar bilan bevosita bog'liqdir. Insoniyatni keyingi mavjud bo'lishini gumon qilib qo'ygan oilaning global inqirozini bartaraf qilish global chora-tadbirlarni taqozo qiladi. Buning uchun G'arb va Sharq mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy himoya tizimining ma'naviy sohasida hamkorlikni ta'minlaydigan maxsus xalqaro muvofiqlashtiruvchi markaz tuzish lozim. Bunday markaz global miqyosda ma'naviyatni yuksaltirib ijtimoiy sog'lomlikni ta'minlab oila global inqirozini bartaraf qilishga xizmat qiladi.

Har bir davlatning rivojlanish darajasiga xalqaro hamjamiyat tomonidan baho berilganda asosiy mezon ijtimoiy himoya tizimining rivojlanganlik darajasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekistondagi ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish uchun ushbu sohada faoliyat yuritadigan davlat va nodavlat tashkilotlarni faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus markaz tuzish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz va xalkaro miqyosdagi ijtimoiy himoya tizimini faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz asosiy e'tiborni ma'naviyatni yuksaltirish orqali oilani inqirozdan olib chiqib uni sog'lomlashtirishga qaratishi lozim. Buning uchun global insoniyat jamiyatida oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borishga intilish lozim. Oilani inqirozdan olib chiqib uni mustahkamlash qator sosial muammolarni ya'ni bolalarni, yoshlarni va kariyalarni ijtimoiy himoyasini ta'minlashini unutmashimiz kerak.

Hozirgi kunda insoniyat oldida turgan global muammolar singari ijtimoiy himoya masalalarini globallashib borishi global tadbirlarni taqozo etmoqda. Global tadbirlar esa insoniyatni birlashuvini talab etadi. Insoniyatni halokat yoqasiga olib kelayotgan global muammolar tahdidi insoniyatni birlashishga undaydi. Birlashish uchun insoniyatni farqlariga emas balki umumiy tomonlarini ko'rish va e'tiborni unga qaratish lozim. Buning uchun insoniyatni birlashishga undaydigan bag'rikenglik ramzi yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Oilaning asosiy muhim vazifalardan biri farzand tarbiyasi, uni sog'lom, baquvvat, har tomonlama kamolga yetgan, ma'naviy boy, ahloqiy pok va jismoniy sog'lom kishilarni tarbiyalash ilk bor oilada amalga oshiriladi. Shu bois hozirgi kunda oila va undagi o'zaro ahloqiy munosabatlar, xususan, bola tarbiyasi masalalari aynan shu kunning dolzarb va ijobiy hal etishi lozim bo'lgan muammolar qatoridan o'rin olgan. Zero oilada turmushning yaxshi tashkil etilgan muayyan ichki tartibi, ya'ni mehnat, dam olish, ovqatlanish, o'quv mashg'ulotlari, o'yinlar, sayr qilish, madaniy ko'ngil ochish kabilar ko'ngilgidek ichki intizomni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham doimo, har qanday sharoitda ham oilada o'zaro normal munosabatlarni saqlashga, unda sog'lom vaziyat o'rnatishga harakat qilish lozim. Chunki, oilada shunday sog'lom vaziyat bo'lmas ekan, bola tarbiyasida ham, er-xotin o'rtasidagi munosabatda ham, qo'yinki, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida ham totuvlik bo'lmaydi, buning oqibatida har xil ko'ngilsiz voqyealarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bobokalonlarimizdan Yusuf xos Hojib – «Oiladagi eng ulug' fazilat ezgulik va go'zal xulqdir. Ikkinchisi – rostlik, uchinchisi – hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo'ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi»,¹⁶ – deb aytgan edilar. Xalq muammolaridan: «Farzand aziz-odobi undan aziz» o'z o'rnida aytilgan.

Hozirgi davr barcha sohadagi kabi oila ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasini, farzandlar tarbiyasi masalasini to'g'ri va ijobiy hal etishni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Bu muammoni kishini ma'naviy jihatdan yuksaltirish asosidagina hal qilish mumkin. Zero oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir.

Shunday qilib, oila ikkita katta o'lkan ijtimoiy vazifani: farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yadi. So'nggi vaqtda oila va bolalar tarbiyasida anchagina muammolar yig'ilib qolganligi kuzatiladi. Buning oldini olish maqsadida, chora-tadbirlar, ya'ni 1989 yil 28 fevral va 1 mart kunlari Toshkent shahrida «Yoshlar va o'smirlar o'rtasida, ularning tarbiyasida maktab, oila, mehnat jamoalari va jamoatchilik hamkorlik ishini takomillashtirish» mavzusida

¹⁶ Юсуф Хос Хожиб. "Қутадғу билиг", Т. 1990, 38-бет.

o'tkazilgan jumhuriyat miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyani aytish mumkin. Bir qator metodik qo'llanmalar: «Oilada bola tarbiyasi», «Oilada ruhiy yordam», «Oilaviy munosabatning tibbiy jihatlari», «Oilani rivojlantirishning regional xususiyatlari» kabi qo'llanmalar tavsiya etildi.

Ayniqsa, jahonda oila va bolalar tinchligi, osoyishtaligini yanada mustahkamlash maqsadida 1989 yil 17 mayda Toshkentda Osiyo-Tinch okean regionini mamlakatlari xotin-qizlar jamoatchiligining «Xotin-qizlar tinchlik uchun» mavzusidagi anjumani bo'lib o'tishi katta ahamiyatga ega.

Keyingi paytda televideniye va radio eshittirishlarida ham oila tarbiyasi mavzusiga katta ahamiyat berilmoqda, chunonchi: «otalar so'zi-aqlning ko'zi», «qari bilganni pari bilmas», «hayot va zamon», «odobnoma», «Qadriyatlar» kabi ko'rsatuvlar shular jumlasidandir.

Bola tarbiyasida eng avvalo oila hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylik, sadoqatli shirin suxan bo'lishi bola kamolotida beqiyos hayotiy muhim vositadir, bu borada «Hadis» namunalarida bunday deyilgan: «Gaplarning yomoni bu yolg'onchilikdir, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va'da qilib keyin bajarib qo'ysin. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yomon odamga yomon beradilar. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi¹⁷. Ayrim ota-onalar, ayniqsa otalar farzandlari oldidagi burchini oilani faqat moddiy jihatdan ta'minlashgina tushinadilar. Otalik burchi faqat ono topib kelishdan iborat emas-ku.

Xalq bolalarning hatti-harakatiga, qiliqlariga baho berar ekan, doimo ularning ota-onalariga o'xshashlik tomonlarini qidirishgan. Xalqimiz orasida «onasini ko'ru-qizini ol» yoki «otasining o'g'lida» degan gaplarning yurishi fikrimizning asosidir.

O'zbek xalhiga xos boy urf-odatlarini ham hozirgi kunga kelib, bolalarimiz u yoqda tursin hatto ayrim ota-onalarning o'zlari ham bilishmaydi, bilishsa ham amal

¹⁷ Қаранг. "Ахлоқ – одобга оид ҳадис намуналари". Т. "Фан", 1990, 46-бет.

qilishmaydi. Shunday ekan ushbu oilalarda tarbiyalangan bolalardan bu haqda nimani ham talab qila olasiz.

Hayriyatki, endilikda ana shu yo'qotilgan ajoyib sharqona an'analarimiz tiklanmoqda. Zero bu yoshlarimizni o'z xalqiga, o'z Vataniga, o'z milliy an'analariga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalashda beqiyos xazina bo'lib xizmat qilish mumkin.

Oilaning global inqirozi fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida G'arb mamlakatlarida ahloqiy tarbiyaga e'tibor qilmaslik oqibatida ma'naviy qashshoqlik natijasida yuzaga kelganligini inobatga olib asosiy e'tiborni aholini va eng yoshlarni axloqiy tarbiyasini kuchaytirishga qaratish lozim. Bu borada mustaqillik yillarida Respublikamizda shakllanayotgan ijtimoiy ish xodimlarini professional darajada tayyorlash tizimini shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" Toshkent, "O'zbekiston", 1997 yil.
2. Karimov I.I. "Trixiy xotirasiz kelajak yo'q" Toshkent, "Sharq", 1998 yil.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston buyuk kelajak sari" Toshkent, "O'zbekiston", 1997 yil.
4. Karimov I.A. "Savdo yo'lidagi ipak yo'lini tiklanish sari" Toshkent, 1996 yil.
5. Karimov I.A. "Istiqlol va ma'naviyat" Toshkent, 1994y
6. Karimov I.A. "O'zbekiston xalqi yo'lida qaytmaydi" Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil
7. Karimov I.A. "Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar" "O'zbekiston", Toshkent 1996 yil.
8. Karimov I.A. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin" Toshkent, "O'zbekiston" 1996 yil.
9. Karimov I.A. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" Toshkent "O'zbekiston", 1996 yil.
10. Karimov I.A. "O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura" Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil.
11. Axmedov B.A. "Soxibqiron A.Temur" Toshkent, 1996y.
12. Bartold V.V. "Ulug'bek i yego vremya" t.4, ch.2, M., 1992y
13. Ibn Arabshox "Amir Temur tarixi". Toshkent, 1992y.
14. "Temur tuzuklari". Toshkent, 1995 yil.
15. Ulmasov A. Uzbekistan: ekonomicheskii rost i blagosostoyaniye neseleniya, T., 1978 god.
16. Saidov G.S. Istochniki povыsheniya jiznennogo urovnya selskogo naseleniya Uzbekistana na sovremennom etape. Tashkent, 1978 god.
17. Abdurashidov B.A. Problemy razvitiya bystrogo obslujivaniya naseleniya. Tashkent, 1995 god.

18. Nabiyev F.X. *Sosialnaya politika v Turkestane v gody nera*. Samarkand, 1995 god.
19. Xazratkulov A. *Sosialnyye problemy Uzbekistana i puti ix resheniya* Tashkent, "Fan" 1992 god.
20. Yakubovskiy A.Yu. *Problemy sosialnoy istorii narodov Vostoka v trudax akademika V.V. Bartolda*. Vesnik Leningradskogo universiteta. -L., 1947, №2.
21. Nabiyev F.X. *Problemy i protivorechiya sosialnoy politiki v Turkestane (1921-1924g)* Toshkent, 1995 god.
22. Golovonov A.A. *Krestyanstvo Uzbekistana: evolyusiya sosialnogo polojeniya 1917-1937gg*, Tashkent, 1992 god.
23. Nabiyev F.K. *Sovet mustabid tuzumining birinchi yillarida Turkiston shaharlaridagi ijtimoiy siyosat*. Samarkand, 2002y.
24. Nabiyev F.X. *Uzbekistonda ijtimoiy siyat evolyusiyasi*. Ma'ruza matni. Samarkand, 2004 y.
25. Nabiyev F.X. *O'zbekistonda ijtimoiy siyat evolyusiyasi*. O'quv-uslubiy ko'llanma. Samarqand, 2006 y.
26. Nabiyev F.X. *Ijtimoiy siyosat*. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand 2007 y.